



Bugungi O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy, madaniy-ma'rifiy gazeta

E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

2026-yil 17-iyun, 11-son (85)

МУҲИМ МИНЕРАЛЛАР ХОМАШЁ БАЗАСИ КЕНГАЙТИРИЛИБ, ЮҚОРИ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТЛИ МАҲСУЛОТЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИЛАДИ

Президент Шавкат Мирзиёев sanoat uchun muhim minerallar homashё bazasini rivojlantirish hamda yuqori qushilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan taqdimot bilan taniydi.

Дунёда технологик металллар ва муҳим минералларга талаб кескин ортиб бормоқда. Электротехника, машинасозлик, авиация, энергетика, тиббиёт ва бошқа юқори технологияли тармоқлар учун зарур бўлган бундай хомашё ва маҳсулотлар иқтисодий хавфсизлик ҳамда sanoat rakobatbardoshligining muhim omiliga aylanmoqda.

Мамлакатимизда бу йўналишда катта салоҳият бор. Лекин ҳозирги вақтда Ўзбекистон технологик металллар комбинатининг асосий фаолияти асосан вольфрам ва молибден ишлаб чиқариш билан чекланиб қолмоқда. Ваҳоланки, янги конларни ўзлаштириш, бойитиш фабрикалари, гидро ва пирометаллургия заводларини қуриш орқали 28 турдаги муҳим минералларни sanoat darajasida ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Тақдимотда ушбу салоҳиятни тўлиқ ишга солиш бўйича 2026-2030 йилларга мўлжалланган режалар кўриб чиқилди. Унга кўра, умумий қиймати 4,2 миллиард долларлик 120 та лойиҳани амалга ошириш кўзда

тутилган. Бу орқали тармоқ ҳажминини 2028 йилгача 1 миллиард долларга, 2030 йилгача 2 миллиард долларга етказиш имконияти борлиги қайд этилди.

Жорий йилнинг ўзида 166 миллион долларлик 12 та лойиҳани ишга тушириш режалаштирилган. Натижада юқори софликдаги селен, теллур ва рений каби 3 турдаги янги металл, кукун металлургияси асосида автодеталлар сингари 21 турдаги импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ҳамда сульфат кислотаси ишлаб чиқариш йўлга қўйилади. Шунингдек, янги қувватлар ҳисобидан юзлаб иш ўринлари яратилади, бюджет тушумлари ва экспорт имкониятлари ортади.

Вольфрам ва молибден бўйича "хомашё — қайта ишлаш — тайёр маҳсулот" занжирини ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилди. Бу орқали фақат концентрат ёки ярим тайёр маҳсулот эмас, балки юқори қўшилган қийматга эга металл кукунлари, қотишмалар, стергенлар, симлар, sanoat uchun detalлар ва бошқа тайёр ма-

сулотларни ишлаб чиқариш мақсад қилинган.

Бунинг учун Чирчиқ шаҳрида "Келажак металлари" технопарки ва R&D марказининг фаолиятини кенг йўлга қўйиш белгиланган. У ерда илмий ишланмаларни тижоратлаштириш, стартап лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш, юқори софликдаги металллар ва инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун зарур шарт яратилади.

Президентимиз технопарк ва унинг резидентларига ер участкалари ҳамда инфратузилмадан фойдаланиш бўйича қўшимча имтиёзлар бериш, стартап лойиҳаларни молиялаштириш дастурини ишлаб чиқиш зарурлигини таъкидлади.

Марказий Осиёда муҳим минераллар бўйича ягона илмий-тадқиқот ва технологик марказни шакллантириш масаласи ҳам кўриб чиқилди. Чирчиқ шаҳрида ташкил этилаётган нанотехнология лабораторияси геология, кончилик ва металлургия лойиҳалари учун замонавий таҳлил хизматларини кўрсатади. Лаборатория тўлиқ ишга тушгач, бир

кунда 1 мингтагача намуна таҳлил қилиниб, 6,5 миллион долларлик импорт хизматлари маҳаллийлаштирилади, яна 4 миллион долларлик хизматлар экспортга йўлга қўйилади.

Соҳадаги лойиҳаларни тезлаштириш учун геология-қидирув ишларини кенгайтириш, истиқболли майдонлар ва конларни халқаро стандартлар асосида баҳолаш, техноген чиқиндиларни қайта ишлаш, хорижий инвесторлар ва технологик ҳамкорларни фаол жалб қилиш муҳимлиги қайд этилди.

Шу билан бирга, тармоқда рақамлаштириш ва сунъий интеллект технологияларини жорий этиш зарурлиги таъкидланди. Геологик маълумотларни ягона рақамли базага жамлаш, қидирув ишларини 3D моделлаштириш, ишлаб чиқариш жараёнларини реал вақт режимида назорат қилиш, бозор таҳлили ва лойиҳалар бошқаруви замонавий платформалар орқали ташкил этиш вазифалари белгиланди.

Соҳа учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш масаласига

ҳам эътибор қаратилди. Тошкент давлат техника университети билан дуал таълим тизими йўлга қўйилиб, Технологик металллар комбинатиде металлургия ва материалшунослик бўйича 2 та кафедра очилган. Айни вақтда университетнинг 64 нафар талабаси ишлаб чиқариш амалиётини корхонада ўтамоқда. Мутасаддиларга дуал таълим қамровини кенгайтириш, ўқув дастурларини янги лойиҳалар эҳтиёжига мослаштириш ва битирувчиларни юқори технологик ишлаб чиқаришларга йўналтириш бўйича кўрсатмалар берилди.

Давлатимиз раҳбари муҳим минераллар соҳаси янги sanoat tarmonlarini shakllantirish, eksportni kupaityrinish, texnologik mustaqillikni ta'minlash va yuqori mалаkali ish urinlari yaratishda katta ahamiyatga ega эканини таъкидлади.

Мутасаддиларга 2026-2030 йилларга мўлжалланган лойиҳалар ижросини қатъий назорат қилиш бўйича топшириқлар берилди.

ЎЗА

Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак. Шавкат МИРЗИЁЕВ



Янги Ўзбекистон суд тизимининг толмас таянчи бўлган одил судлов судьялари ва соҳа ходимларига насихатларим!

Сўнги пайтларда матбуотда ва ижтимоий тармоқларда суд тизимига оид эълон қилинаётган айрим хабарларни ўқиб соҳамиз кишиларига дўстона, агар қабул қилинса кўп йиллик тажрибаларимдан тўплаган самимий насихатларимни йўллашни устозлик бурчим деб билим.

Мамлакатимизда адолатни қарор топтириш йўлида хизмат қилиб келаётган азиз ҳамкасбларим! Шунинг унутмаслик лозимки, судья энг аввало юксак инсоний фазилатларга эга, инсон қадрини ва шаънини улуғлайдиган инсон бўлиши керак! Бу касб эгаси давлат ва жамият олдидаги бурчини чуқур ҳис қилган ҳолда судьялик қасамёдига содиқ қолиши, ҳалол ва адолатли бўлиши билан бирга, ундан касбига фидойи бўлиб, ишларни қонун доирасида виждонан, ҳолисона, адолат билан амалга ошириш талаб этилади. Бу судьянинг нафақат касбий, балки қонуний мажбурияти ҳамдир.

Судьянинг вазифаси кимнингдир ишончини қозониш ёки илтимосини бажаришдан эмас, балки унинг асосий бурчи Президентимиз таъкидлаганидек, мамлакатимизда қонун ўстуворлигини таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли химоя қилиш ҳамда адолатни қарор топтиришдан иборатдир.

Судьялик жуда юксак ва масъулиятли лавозим ҳисобланади. Бу шарафли ном доимо улуғланиши, эҳтиёт қилиниши ва пок сақланиши лозим. Шу боисдан судья ўзини ҳам хизмат қилаётган соҳасини ҳам нуфузини муқаддас деб билиб ушбу мўтабар номга доғ тушурмасликни ўзининг энг муҳим конституциявий бурчи сифатида қарши зарур.

Судья кибру-ҳаво, манманлик ва шахсиятпарастликка берилмасдан бу каби иллатлардан йироқ бўлиши, ўзини бошқалардан устун қўйиш бу шарафли касбнинг моҳиятига мутлақо зид тушунча эканлигини чуқур англаб етиши керак. Аксинча, у ўзининг юксак билими, кенг дунёқарashi, маданияти ва маърифати билан атрофдагиларга ўрнак бўлиши лозим. Шу боис, соҳамиз кишилари Кайковус таъкидлаганидек "яши ҳунар ва илм билан зийнатланмоғи керак".

2-бет

YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY JURNALISTIKA

Uchinchi Renessansni mahoratli va shijoatli, qalami o'tkir va kasbga sadoqatli jurnalistlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi



Bahodir XOLIQOV, Samarqand davlat chet tillar instituti rektori, professor.

O'zbekiston bugun o'z taraqqiyot yo'lining mutlaqo yangi va poydevor bosqichini bosib o'tmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston g'oyasi va Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish strategiyasi shunchaki balandparvoz shiordan iborat emas, balki millatning uyg'onishi, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy hayotning tubdan yangilanish jarayoni bo'layotgani isbotlamoqda. Xo'sh, mana shunday tarixiy burilish pallasida ommaviy axborot vositalari vakillari — jurnalistlarning o'rni va mas'uliyati nimalardan iborat bo'ladi?

2-бет



2-бет



Berlindagi uchrashuv: Germaniyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar bilan ochiq muloqot

Germaniya Federativ Respublikasiga amalga oshirgan xizmat safari doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov Germaniyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar yoshlar bilan uchrashdi.

O'zbekistonning Berlin shahridagi elchixonasida tashkil etilgan ochiq muloqotda Germaniyaning nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil olayotgan hamda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoshlar ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, universitetlarning xalqaro nufuzini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash hamda yosh olimlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida atroflicha ma'lumot berildi.

Ta'kidlanganidek, Yangi O'zbekistonda inson kapitali taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida qaralmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiyot bilan integratsiya qilish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muloqot davomida Germaniyada tahsil olayotgan yoshlar o'zlarini qiziqitgan masalalar, xususan, O'zbekistonda ilmiy faoliyatni davom ettirish imkoniyatlari, akademik mobillik dasturlari, xalqaro qo'shma loyihalalar, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda mehnat bozorida yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj haqida fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Ayniqsa, mamlakatimizda muhandislik, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, yashil energetika va innovatsion tadbirkorlik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar talaba-yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ular Germaniya universitetlari va ilmiy markazlarida o'ttirgan bilim va tajribalarini kelgusida vatanimiz taraqqiyoti yo'lida safarbar etishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

2 ДАВР

” Фуқароларнинг ҳар қандай муаммоларини ҳал этиш давлатнинг халққа нисбатан асосий мажбуриятларидан бири эканини унутишга ҳеч кимнинг ҳаққи йўқ.

Янги Ўзбекистон суд тизимининг толмас таянчи бўлган одил судлов судьялари ва соҳа ходимларига насиҳатларим!

(Давоми. Бошланиши
1-бетда.)

Яна бир муҳим жиҳат шундаки, судьядан нафақат хизмат фаолиятида, балки оиласида, жамоатчилик орасида ва кундалик ҳаётда ҳам судьялик мақомига муносиб хулқ-атвор ва касб этикасига амал қилиши талаб этилади. У камтарликни ўзига шиор қилиб, ўз касбининг билимдон ва фидойиси бўлиши, шу билан бирга, виждонли, ҳалол ва ҳушмуомалали инсон сифатида эл-юрт ҳурматини қозониши лозим.

Бугунги рақамлаштириш жараёнлари жадал кечаётган, ахборот технологиялари инсон ҳаётининг барча жабҳаларига чуқур кириб бораётган даврда одамларнинг дунёқараши, фикрлаш тарзи ва ҳаётга муносабати ҳам тобора ўзгариб бормоқда. Бундай шароитда судьялар ҳам замон билан ҳамқадам бўлиб, юксак ҳуқуқий билим ва касбий маҳорат билан бир қаторда, замонавий технологиялардан оқилона фойдаланиш борасида ҳам ўз салоҳияти ва намунасини намоян эта билиши лозим. Судьядан, шунингдек, оила аъзолари билан биргаликда сабр-тоқатли бўлиб,

меҳнати эвазига топадиган ҳалол даромадига қаноат қилиб, шукроналик билан ҳаёт кечириши талаб этилади. Ана шундай ҳаёт тарзи судьяни турли хижолатомуз ҳолатлардан асрайди ва ҳеч қачон афсус ва надоматга ўрин қолдирмайди. Энг муҳими, бундай фазилатлар соҳиби жамиятда ҳурмат ва эътибор қозонади. Судья ҳар қандай вазиятда ҳам қонуний ва адолатли йўлни танлаши шарт. Аниқ ишларни кўришда у фақат ишончли ва инкор этиб бўлмайдиган далилларга таяниб қарор қабул қилиши, иш бўйича аниқланган енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи

ҳолатларни ҳар томонлама баҳолаган ҳолда қонунда назарда тутилган тегишли чорани қўллаши лозим. Зеро, одил судловнинг мустақкам пойдевори қонунга садоқат, ҳолислик ва виждон амри бўлса, мақсади инсонпарварликдир.

Ҳурматли судьялар ва соҳамиз ходимлари!

Ушбу сатрларни ўқиш билан биргаликда уқинг, мазмун-моҳияти устида чуқур мулоҳаза юритинг ва кундалик фаолиятингизда амал қилишга интилинг. Агар мени мазкур соҳага бутун умрини бағишлаган устоз сифатида қабул қилиб, ушбу сами-

мий насиҳатларимга қулоқ тутсангиз, албатта, касбий фаолиятингизда ҳам, ҳаётингизда ҳам юксак муваффақиятларга эришасиз, деб ишонаман. Зеро, ҳалоллик, адолат, пок виждон ва қонунга садоқат инсонни доимо эзгулик сари етаклайди. Ана шунда сиз хотиржам ва баракали умр кечирасиз, эл-юрт олдида ҳам юзингиз ёруғ, обрўингиз баланд бўлади.

Фурсатдан фойдаланиб, барчангизга мустақкам соғлик, оилавий хотиржамлик, бахт-саодат ва масъулиятли фаолиятингизда улкан зафарлар тилайман.

Сизларга чуқур ҳурмат билан,

Убайдулла МИНГБОВЕВ,
Ўзбекистон Судьялари ассоциацияси ва Суд тизими фахрийлари
Маркази раиси,
Ўзбекистон Республикасида хизмат қўрсатган юрист

YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY JURNALISTIKA



(Давоми. Бошланиши
1-бетда.)

Uyg'onish va yuksalish barcha davrlarda ham adolat va shaffoflik poydevori ustiga qurilgan. So'z va fikr erkinligi bu borada juda muhim vazifani bajaradi. Keyingi yillarda OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatyapmizki, bugungi o'zbek jurnalistikasi shunchaki rasmiy tadbirlarni yorituvchi "ko'zgu" vazifasidan chiqib, jamiyat hayotidagi o'tkir muammolarni dadil ko'tarib chiquvchi, mavjud kamchiliklarni ro'y-rast tanqid qiluvchi ulkan kuchga aylandi.

Quvonarlisi, bugun jurnalist va blogerlar davlat organlari mas'ullari va mansabdor shaxslarning xalq oldidagi hisobdorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan. Korruptsiyaga qarshi kurashish, byurokratiyani fosh etish va qonun ustuvorligini ta'minlashda jurnalistik chiqishlar eng ta'sirchan qurol bo'lib xizmat qilmoqda. Negaki, so'z erkinligi bor joyda rivojlanish bo'ladi, yashirin iqtisodiyot va korruptsiya esa shaffoflikdan juda qo'rqqadi.

Matbuot sahifalarida, efir va ijtimoiy tarmoqlarda yengil-yelpi kontentlar emas, balki yoshlarni chuqur mushohadaga chorlaydigan, ularda IT, tadbirkorlik va innovatsiyalarga havas uyg'otadigan materiallar ko'payishi kerak. Jurnalists — millat tarbiyachisi, yangi davr qahramonlarini kashf etuvchi va ularni jamiyatga o'rnatib qo'yuvchi mayoqdor. Bugungi kun jurnalistning vazifasi — jamiyatda ilm-fan, ma'rifati va kitobxonlikni olib yuqori cho'qqiga olib chiqish ekanligini ijodkorlarimiz juda yaxshi bilishadi.

Shuni muhimki, bugungi dunyo nafaqat iqtisodiy yoki harbiy, balki kuchli gibrid va axborot urushlari maydoniga aylandi. Bunday sharoitda o'zbek jurnalistikasi oldida ulkan, sharafli va mas'uliyatli vazifa qo'yiladi. Bugun jurnalistlar o'z zligini anglab yetgan milliy xavfsizlikni ta'minlovchilar va axborot xurujlariga qarshi

ma'naviy qiyofasini yangilash demakdir.

Har qanday buyuk uyg'onish avvalo so'zdan, fikrdan va haqiqatni aytishga jur'at topgan ziyolilar safidan boshlangan. Shu ma'noda, bugungi jurnalist zimmasidagi mas'uliyat oddiy kasbiy burchdan ancha yuksak — u xalq tafakkurini shakllantiruvchi, jamiyat vijdonini uyg'otuvchi va millat kelajagini yo'naltiruvchi kuchdir. Ushbu ulug'vor maqsad yo'lida Samarqand davlat chet tillar institutida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Xalqaro jurnalistika yo'nalishi faoliyati yo'lga qo'yilib, mutaxassislar tayyorlashning mutlaqo yangi tizimiga asos solingani amaliy qadamlardan biri bo'ldi.

Xalqaro jurnalistika yo'nalishida bugungi kunda jami 93 nafar talaba tahsil olmoqda. Ular shunchaki xabar yozuvchi shaxs emas, balki diplomat, siyosatshunos, tilshunos va eng muhimi, milliy g'oya targ'ibotchisi bo'lishlari lozimligini juda yaxshi bilishadi. Shu bois, o'quv rejasiga kiritilgan fanlar ro'yxati talabalarda ham fundamental bilim, ham amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur yo'nalish talabalariga ijtimoiy-siyosiy va tarixiy fanlardan "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa", "Dinshunoslik", "Siyosatshunoslik", "Diplomatiya va xalqaro munosabatlar"; kasbiy va amaliy fanlardan "Jurnalistika asoslari va tarixi", "Milliy va



jahon jurnalistikasi tarixi", "Xalqaro jurnalistikada janrlar", "Audiovizual jurnalistika", "Fotojurnalistika asoslari", "Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari", "Davlat boshqaruv organlari bilan ishlash"; nutq va lingvistik mahorat fanlaridan "Medialingvistik va adabiyot", "O'zbek va jahon adabiyoti", "O'zbek tilining amaliy iqtisodiy ko'rsatkich bilan o'lchanadigan jarayon emas. Bu, eng avvalo, inson tafakkurini, dunyoqarashini va

"Axborot texnologiyalari", "Internet va kommunikatsiyalar tarixi", "Mass-mediada kompyuter grafikasi", "Media huquqi", "Media etikasi", "Media bilan ishlash" hamda "Favqulodda vaziyatlarda jurnalist xavfsizligi" fanlari chuqur o'qitilmoqda.

Institutning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, talabalarga xorijiy tillar intensiv tarzda o'rgatilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning jahon axborot maydoniga to'g'ridan-to'g'ri chiqishini ta'minlaydi. Mazkur tizimli yondashuv natijasi o'laroq, bugungi kunda ushbu yo'nalishni bitirgan yosh mutaxassislarining aksariyati nufuzli ommaviy axborot vositalarida, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining axborot xizmatlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishmoqda.

Bugungi zamonaviy jurnalistikani yuqori texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu maqsadda institutda tashkil etilgan zamonaviy Multimedia markazi talabalar uchun haqiqiy tajriba maydoniga aylandi. Markaz eng so'nggi rusumdagi kompyuter texnikasi, professional foto va videokameralar, ovoz yozish uskunalar, yoritish vositalari hamda axborotni tahrirlash uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy ta'minotlar bilan jihozlangan. Ovoz yozish uchun maxsus akustik xonaning mavjudligi mahsulot sifatini professional darajaga ko'taradi. Institut Multimedia

mahsulotlar, audio kitoblar tayyorlanmoqda. Bo'lajak jurnalistlar tomonidan asos solingan "Yangi Renessans" gazetasi, "Samarqand ziyosi" radiosi, "Muvaffaqiyat formulasi" dasturi hamda "Chegarasiz tahayul" podkasti yoshlarning erkin fikrlashlari va



ijodiy mahoratini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Multimedia markazidan institut Masofaviy ta'lim yo'nalishi talabalar uchun maxsus videodarslar platformasini yaratishda ham keng foydalanilmoqda. Professor-o'qituvchilarning videodarslari tasvirga olinib, ijtimoiy tarmoqlarga muntazam joylashtirib borilmoqda. Bundan talabalar oqilona foydalanishmoqda.

Hozirgi globalashuv va virtual makon hukmronligi davrida ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot va ta'lim manbai, balki yoshlar ongini zaharlaydigan illatlar poligoniga ham aylanmoqda. Internet makonidagi nazoratsizlik oqibatida ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotgan ayrim yoshlarda ijtimoiy manqurtlik, siyosiy savodsizlik, johillik, mutaassiblik, radikalizm va "ommaviy madaniyat" ta'siriga ko'r-ko'rona ergashish illatlari namoyon bo'layotgani sir emas.

Institut jamoasi ushbu ma'naviy xavf-xatarlarga qarshi faoqatgina ma'ruzalar bilan emas, balki zamonaviy media mahsulotlar orqali kurashish strategiyasini tanladi. Iqtidorli talabalardan tashkil topgan media studiya ijodkorlari tomonidan "Odob-axloq qoidalariga rioya qilish — barchamizning burchimiz", "Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi birgalikda kurashamiz" hamda "Jaholatga qarshi ma'rifati" g'oyalari ostida turkum videoroliklar va ijtimoiy kontentlar tayyorlanib,

tarmoqlarda keng targ'ib qilinmoqda.

Ijodkor talabalarimiz tomonidan media mahsulotlar yoshlarni ilm-fan va kasbhunarga qiziqitirish bilan birga, "Vatanparvarlik, milliy g'urur va harbiy xizmatga shaylik", "Yoshlarning axloqiy tarbiyasi va

muomala madaniyati", "Tarixiy va milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik", "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va targ'ib qilish", "Mentalitetimizga yot illatlar va g'oyalarga qarshi kurash hamda fakt-cheking (axborotning haqiqiyligini tekshirish)", "To'g'riqlik, halollik va korruptsiyaga qarshi murosasizlik", "Ekologik madaniyat, "Yashil makon" va yashil iqtisodiyot g'oyalari", "Sog'lom turmush tarzi va sport" kabi hayotiy hamda strategik mavzularni qamrab oladi.

Mazkur loyihalar nafaqat institut doirasida, balki butun viloyat va respublika miqyosida yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy qalqon vazifasini o'tamoqda. Nazariy bilimlarning amaliyotda nechog'liq aks etishi soha mutaxassislarining tajribasiga bog'liq. Shu bois institutda tashkil etilayotgan mahorat darslari va ijodiy uchrashuvlar tizimli tus olgan.

Xususan, taniqli jurnalist va jamoat arbobi — "Zarafshon" va "Samarqandskiy vestnik" gazetalar bosh muharriri Farmon Toshev, O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi raisi Shuhrat Oripov, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi rahbari Mannob Ibdullayev, O'zAning viloyatdagi muxbiri G'olib Hasanov, "Ovoz Samarqand" gazetasi bosh muharriri Bahodir Rahmonov hamda taniqli jurnalistlar Akram Haydarov, Abdulaziz Yo'ldoshev, Abdug'ofir Yo'ldoshev kabi soha namoyandalari ishtirokida o'tkazib kelinayotgan seminar-

treninglar, davra suhbatlari va master-klasslar ustoz-shogird an'anasini davom ettirish bilan birga talabalar uchun haqiqiy ijod maktabi vazifasini o'tamoqda.

Bu singari tadbirlar ijodkor yoshlarning sohaga bo'lgan mehrini oshirib, ularda kasbiy mas'uliyat va jurnalistikaga xos ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ustoz-shogird an'analarning bunday yuksak darajada tashkil etilishi talabalarning oliy o'quv

qiladigan kadrlarga aylanishiga zamin yaratayotir.

Bugun Samarqand davlat chet tillar institutida tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan har bir yoshning ko'zida ertangi kungga ishonch, vatanga muhabbat tuyg'usini ko'ramiz. Jurnalistsika sohasiga qiziqayotgan, dunyo tillarida Yangi O'zbekiston ovozi yangratishtirishga shaylanayotgan bu iqtidorli yoshlardan umidimiz juda katta.

Biz Uchinchi Renessansni bunyod etarkamiz, bu yo'lida eng avvalo ma'rifati, vatanparvar va mas'uliyatli avlodni tarbiyalashimiz shart. Ana shunday salohiyatli avlodni voyaga yetkazishda esa ta'lim muassasalari, ayniqsa, jurnalistika kabi ijtimoiy fikrni boshqaruvchi soha vakillarini tayyorlaydigan dargohlarning o'rni beqiyosdir. Samarqand davlat chet tillar institutida yaratilayotgan ilmiy-ijodiy muhit, zamonaviy media makon va xalqaro jurnalistika ta'limi tizimi va ulug' maqsadning amaliy ifodasidir.

Zero, ertangi kun tarixini bugun yozayotganlar — qo'lida qalam, qalbidan vatanga sadoqat va ongida buyuk maqsad mujassam bo'lgan yoshlardir. Ular qanchalik bilimli, mustaqil fikrli va ma'naviy barkamol bo'lsa, Yangi O'zbekistonning poydevori shunchalik mustahkam bo'ladi. Chunki millatning buyuk kelajagi avvalo ustoz so'ziga, tafakkuriga va haqiqatni himoya qila oladigan farzandlariga tayanadi.

„**Маърифатпарвар жадид боболаримизнинг бу сўзлари депутат ва сенаторларимиз, сиёсий партиялар, маҳаллий кенгашлар, бутун давлат аппарати, кенг жамоатчиликнинг амалий ҳаракатига айланиши керак.**

MARKAZIY OSIYO SUV RESURSLARI: OQILONA FOYDALANISH MUAMMOLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Suv zamonaviy dunyoning eng muhim strategik resurslaridan biridir. Markaziy Osiyo davlatlari uchun suv ta'minoti masalasi qurg'oqchil iqlim, iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga yuqori darajada bog'liqligi hamda suv resurslarining notekis taqsimlangani sababli alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi o'n yilliklarda suv muammosi mintaqaning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Aholi sonining ortishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlari va iqlim o'zgarishlari suv tizimlariga bosimni kuchaytirib, suv resurslarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Suvdan oqilona foydalanish bugungi kunda nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifaga ham aylangan.

Markaziy Osiyo suv resurslarining asosini Tyanshan va Pomir tog'laridan boshlanuvchi Amudaryo hamda Sirdaryo daryolari tashkil etadi. Suv oqimining katta qismi Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida shakllansa, uning asosiy iste'molchilari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston hisoblanadi. Shu bois mintaqa suv resurslari transchegaraviy xususiyatga ega bo'lib, davlatlar o'rtasida doimiy hamkorlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Mintaqada suvning eng yirik iste'molchisi qishloq xo'jaligidir. Umumiy suv sarfining qariyb beshdan to'rt qismi sug'orishga to'g'ri keladi. Irtiqatsiya tufayli paxta, sholi, sabzavot, meva va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari

yetishtiriladi. Biroq ko'plab sug'orish tizimlari o'nlab yillar avval qurilgan bo'lib, bugungi kunda ularni modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Kanallarda filtratsiya, bug'lanish va infratuzilmaning eskirishi sababli katta hajmdagi suv yo'qotilmoqda. Bundan tashqari, ortiqcha sug'orish va drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi natijasida tuproqlarning sho'rlanishi kuchaymoqda. Yerlarning degradatsiyasi hosildorlikni pasaytirib, qishloq xo'jaligi maydonlarini tiklash uchun qo'shimcha mablag' talab etmoqda. Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyo suv resurslariga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada

o'rtacha yillik haroratning oshishi, qurg'oqchiliklar sonining ko'payishi va ekstremal ob-havo hodisalarining tez-tez kuzatilishi buning yaqqol dalilidir. Ayniqsa, Tyanshan va Pomir muzliklarining tez sur'atlarda erib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Mazkur muzliklar mintaqaning tabiiy chuchuk suv omborlari vazifasini bajaradi. Qisqa muddatli istiqbolda muzliklarning erishi daryolardagi suv oqimini ko'paytirishi mumkin. Biroq uzoq muddatli istiqbolda muzliklar hajmining qisqarishi suv resurslarining kamayishiga olib keladi. Bu esa qishloq xo'jaligi, energetika va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haroratning oshishi natijasida tuproq va suv havzalaridan namlikning bug'lanishi kuchayadi. Natijada avvalgi hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun yanada ko'proq suv talab etiladi.

Markaziy Osiyoning yirik daryolari transchegaraviy bo'lgani sababli suv taqsimoti masalasi ko'pincha bir necha davlat manfaatlariga daxldor bo'ladi. Yuqori oqimdagidavlatlar suv resurslaridan gidroenergetika maqsadlarida foydalanishga intilsa, quyi oqimdagimamlakatlar sug'oriladigan yerlarni suv bilan barqaror ta'minlashdan manfaatdor. Shu bois suvdan foydalanish masalalari

mintaqaviy hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida turli mintaqaviy mexanizmlar va komissiyalar tashkil etilgan. Shunga qaramay, milliy manfaatlardagi farqlar, gidrologik sharoitlarning o'zgarishi va suvga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish doimiy muloqot, axborot almashinuvi va o'zaro manfaatli qarorlar ishlab chiqishni talab etadi.

Suv muammolarini hal etishning eng muhim yo'nalishlaridan biri zamonaviy suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishdir. Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullari an'anaviy sug'orish tizimlariga nisbatan suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Mamlakatimizda ham bunday texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, gidrotexnik infratuzilmani modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Kanallarni rekonstruksiya qilish, suv hisobini yuritish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish suv yo'qotishlarini kamaytirib, undan foydalanish samaradorligini oshiradi. Suv xo'jaligini raqamlashtirish va zamonaviy monitoring usullarini qo'llash ham istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibini takomillashtirish ham dolzarb

vazifalardan sanaladi. Eng qurg'oqchil hududlarda kam suv talab qiladigan ekinlarni yetishtirishga bosqichma-bosqich o'tish suv resurslariga tushayotgan yuklamani kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aholining ekologik savodxonligini oshirish va suvga nisbatan mas'uliyatni munosabat madaniyatini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo suv resurslari mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi farovonligining asosidir. Biroq suv tanqisligi, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishlari va transchegaraviy boshqaruvdagi murakkabliklar ushbu resurslardan foydalanishni tobora qiyinlashtirmoqda. Mazkur muammolarni hal etish faqat zamonaviy texnologiyalar, samarali davlat boshqaruvi va xalqaro hamkorlikni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv asosidagina mumkin. Suv resurslaridan oqilona foydalanish mintaqaviy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur. Faqat suvga ehtiyohtorona munosabat va davlatlarning hamijhat harakatlari orqali Markaziy Osiyo kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish hamda suv xavfsizligini ta'minlay oladi.

Saida XAKIMOVA, Farg'ona davlat universiteti dotsenti



Qarshi davlat universitetida jurnalist va bloggerlar uchun press-tur tashkil etildi

Tadbir universitetda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ta'lim jarayonidagi yangiliklar hamda talaba-yoshlar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida o'tkazildi.



Daslab universitet rahbariyati tomonidan oliygohda yoshlarning sifati ta'lim olishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hamda so'nggi yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot berildi.

Shundan so'ng press-tur ishtirokchilari universitetning zamonaviy infratuzilmasi va yangi obyektlari bilan tanishdilar. Jumladan, 5 qavatli Xorijiy tillar fakulteti o'quv binosi, unda joylashgan "Institut Franzais de Karshi" fransuz tili markazi, Ingliz tili dasturlari, KOICA markazi, Nemis tili, Rus tili va Xitoy tili markazlari, Erasmus+ dasturlari ofisi, media studiya, sinxron tarjima auditoriyasi hamda zamonaviy ma'ruza zalari ko'zdan kechirildi. Shuningdek, "Lochin" futbol klubi uchun barpo etilgan zamonaviy stadion majmuasi ham namoyish etildi. Prologa talabarlarga mos ravishda bunyod etilgan majmua tarkibidagi 1400 o'rinli tribuna, sun'iy qoplamali yugurish yo'lga va ikki qavatli ma'muriy bino bilan tanishildi.

МАЪНАВИЯТ – ИНСОН КАМОЛОТИ

Маънавият тушунчаси атрофида доим баҳс-мунозаралар кўп бўлган. Ҳар ким ўзича фикр билдирган, қарашларини илгари сурган. Хатто, маънавият керак эмас, деб ҳисоблайдиган тоифалар ҳам бор. Асл ҳақиқат эса шуки, одамларнинг кундалик ҳаётида, жамиятда маънавиятнинг ўрни ва аҳамияти бекиёс. Таниқли адабимиз Ўткир Хошимов таъкидлаганидай, “одамзодни ҳайвонотдан ажратиб турадиган чегара бор. Бу чегаранинг номи маънавиятдир”. Афсуски, бугун мазкур чегарага урғу берилгани сайин унга ёт кўз билан қарайдиган томфалар учраб турибди.

Маънавият аслида ҳар биримизнинг ботинимизда бўлади. Маънавиятли кишилар Ватани ҳам, элни ҳам индамай севаверади. Халқнинг ташвиш-муаммоларига ечим излайверади. Ёлгон ва пуч ваъдаларга учиб кетавермайди. Шу маънода, миллатнинг маънавиятини ўзгартироқчи бўлган инсон, энг аввало, ислохотларни ўзидан, оиласидан, ён-атрофидаги дўстларидан бошлаши керак. Одамларни “маънавиятли” ва “маънавиятсиз”га ажратиш ҳам мавҳум тушунча. Ҳар кимнинг қалбида у ёки бу даражада маънавий илдиларни мавжуд. Чунки ҳар бир одамнинг кўнглидаги эзгу орзу-ниятлари, хайрли амаллари, уйи, қариндошлари, Ватани — маънавият. Фақат ён-атрофдаги муҳит, турли ахборот хуружлари, ёвуз ниятли кимсаларнинг саъй-ҳаракатлари каби омиллар кўпчиликни йўлдан адаштириб қўйиши мумкин. Шу маънода маънавият — инсон бўлиб яшаш дегани.

Маънавият соҳасида нафақат замон билан ҳамнафас, балки Президентимиз таъкидлаганидай, бугунги ҳаётдан ўн қадам олдинда юриш шарт. Бу — давр талаби. Ўтган йили Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган йиғилишида давлатимиз раҳбари “Биз бугунги кескин шароитда гоёвий-мафкуравий соҳада рақобатга тайёрмизми? Ёш авлод тарбияси мураккаб замон талабларига жавоб бераётими?” сингари саволларни ўртага қўйган эди. Ўзини зиёлиман деган ҳар бир миллатдошимиз бу саволларни ҳар куни, ҳар соатда ўзига ўзи бериши ўта муҳим ва долзарб. Боиси, соҳада қилинаётган ислохот-

ларнинг ҳаммаси миллат эртасига, Ватан тақдирига, юрт келажагига бевосита дахлдор. Шу билан бирга барчамиз ҳамжиҳатликда саволларга жавоб топишимиз, муаммоларга ечим ахтаришимиз зарур. Чиндан ҳам, ахборот технологиялари ривожланган, ахборот алмашинуви тезлашган ҳозирги замон фарзандига ўн йил олдинги эмас, хатто бир соат олдин айтилган гап ҳам қизиқ бўлмаслиги мумкин. Аммо уларнинг шижоати, куч-ғайратини, интилувчанлигини кўриб одамнинг ҳаваси келади. Шу билан бирга, уларнинг қизиқиш ва қарашлари жуда ўзгаришчан бўлади. Бундай ёшларнинг кучи нотўғри мақсад ва гоъларга йўналтирилишига йўл қўймаслигимиз керак. Жанг майдонидан ҳам рақиблар душманининг энг заиф жойини топиб зарба беришга ҳаракат қилади. Шу маънода, бугунги глобал ахборот майдонида ёшларимиз турли гунаҳли кучларнинг нишонида қолиб кетмаслиги лозим. Глобаллашув шароитида инсон онги ва қалбини забт этиш масаласи ўртага чиқмоқда. Шундай экан, бу борада кураш кескин тус олаётган даврда ёшларимизни хавф ва таҳдидлардан асраш, уларнинг мустақил фикри, эътиқоди ва қатъий ҳаётий позициясини шакллантириш шарт. Қолаверса, бугун фақат тарғибот тadbirlari билан кўзалган мақсадга эришиб бўлмайди. Айни пайтда марказ фаолиятининг 30 фоизини аънавий тарғиботга, 40 фоизини рақамли тарғиботга ва 30 фоизини амалий-методик қўлланмалар яратишга йўналтирмоқчимиз. Миллат тарбияси ва маърифатининг ривожланишида зиёлиларнинг

ҳамда халқимиз орасида меҳр-оқибат туйғуларини кучайтиришга кенг йўл очилмоқда. Шунинг қаторида ташкилот ва корхоналарнинг масъул раҳбарлари, зиёлилар бириктирилган ҳолда, худудларнинг ижтимоий-маънавий ҳаритаси яратилмоқда. Республика Маънавият ва маърифат маркази томонидан тузилган олимлар, тадқиқотчилар, зиёлилар, соҳа мутахассисларидан иборат ишчи гуруҳ янги секторнинг иш самарадорлигига масъул қилинди. Секторлар фаолиятини йўлга қўйиш бўйича намунавий методик қўлланмалар, тавсиявий йўриқномаalar яратилмоқда. Бугун маънавият ва маърифат ишини янги поғонага кўтариш учун Фаол фуқароларга ахтиёж сезамиз. Шу сабабли марказда олимлар, соҳа мутахассислари томонидан “Фаол фуқарони шакллантириш” концепцияси лойиҳаси тайёрланмоқда. Мазкур ҳужжатда гўдакка она қорнидалигидан бошлаб, то улғайгунча бериладиган эътибор, тарбия, маърифий озуқа асослари яратилмоқда. Шунингдек, концепцияда зиёлиларнинг ўз билганларини ўзгаларга ўргатиши масаласига ҳам алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Фаол фуқаролар сафининг энг олдинги қаторида зиёлилар бўлиши ҳақидаги ташаббус ишлаб чиқилмоқда. Агар у бугун “менга тинчлик керак” деса, жамиятда нотинчлик кўпаяверади, у “мен гапирмайман” деса, душманларимизни “минбар”га чиқарган бўлади.

Китоб — инсон томонидан яратилган энг катта мўъжиза. Чунки китоб орқали ҳар куни уйингизда ёзувчи, олим, донишмандлар билан хаёлан мулоқот қиласиз. Китоб ўқилмаётми, деб нолиган билан жамиятда китобхонлик шаклланиб қолмайди. Энг аввало, маънавиятли инсон нима учун ўқилмаётганини ўрганиб кўриши керак...

Наргиза АБДИЕВА, ТДИУ Аудит кафедраси профессори, DSc. Фарходжон ОЧИЛОВ, ТДИУ Аудит кафедраси профессори DSc. Мафтунна АБДУРАИМОВА, ТДИУ Аудит кафедраси доценти, PhD. Мухаммади ХАЙИТБОЕВ, ТДИУ Аудит кафедраси доценти, PhD

Bitiruvchi – 2026”: yangi avlod shifokorlari katta hayotga kuzatildi

Toshkent shahridagi “Xalqlar do'stligi” san'at saroyida Toshkent davlat tibbiyot universitetining “Bitiruvchi — 2026” tantanali bitiruv marosimi tashkil etildi. Mazkur tadbir minglab yosh mutaxassislar hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biriga aylandi.



Marosimda sog'liqni saqlash tizimi vakillari, universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilar, ota-onalar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi. Tadbir davomida bitiruvchilarning ta'lim yillaridagi yutuqlari, ilmiy va amaliy faoliyati aks etgan videolavhalar namoyish qilinib, universitetning eng faol va iqtidorli talabalari e'tirof etildi. Tadbir davomida so'zga chiqqanlar bitiruvchilarni hayotlaridagi ushbu muhim sana bilan samimiy tabriklab, mamlakat tibbiyotini rivojlantirish yo'lida ulkan mas'uliyat va sharafli vazifalar kutayotganini ta'kidladilar. Shuningdek, yosh shifokorlarga kelgusi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat, fidoyilik va yuksak natijalar tiladilar.

Bayram tadbiri san'at ustalarining chiqishlari, musiqiy va ijodiy dasturlar bilan yanada ko'tarinki ruhda davom etdi. Marosimning eng hayajonli lahzası sifatida 4 ming nafardan ortiq bitiruvchilar shifokorlik qasamyodini qabul qilib, xalq salomatligini asrash yo'lida sidqiddan xizmat qilishga tantanali va'da berdilar. “Bitiruvchi — 2026” nafaqat bitiruvchilarning talabalik davriga yakun yasagan, balki ularning tibbiyot sohasidagi sharafli kasbiy faoliyatiga mustahkam qadam qo'ygan muhtasham kun sifatida tarixda qoldi.

“Хар бир давлат хизматчиси ҳар куни ўзининг меҳнати билан эгаллаб турган лавозимига лойиқлигини исботлаши керак.



Кўкон адабий мухитдан фарқли ўлароқ Денов адабий мухити XX аср охири ва XXI аср бошларида шаклланди. Фикримизнинг исботи таниқли адабиётшунос олим, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, Денов туман маънавият тарғибот бўлими раҳбари бўлиб ишлаш давомида камина тўплаб, нашрга тайёрлаган “Денов тафаккур чароғлари” (Тошкент, Университет, 2010) номли китобдир. Кейинги бир ярим минг йил давомида битилган манбалардан намуналар жамланган кўлингиздаги ўша китоб китобхонлар мулкига айланди. “Денов тафаккур чароғлари”га “Чағониён тараннуми” (Тошкент, “Musiq” нашриёти, 2015) келиб қўшилди. Унда Денов ҳамда Сурхондарёнинг бошқа туманларидаги эътирофга лойиқ бир қатор ижодкорлар асарларидан намуналар жамланган. Устига устак маҳаллий, турли касб-хунар эгалари бўлмиш ижодкорлардан элликтдан ортигининг фото суратлари Денов ҳокимлигидаги хизмат хонамни бетақдор, тенги топилмайдиган музейга айлантирган. Хонанинг бир бурчагида эндигина босмахонадан келтирилган кимларнингдир китоблари уюми. Стол устида кундалик газета ва журналлар тахлами. Менинг эса доим икки кўлим кўксимда, меҳмонга нисбатан “Буюк, хуш келибсиз, хизмат!” Бошқа бир мансабдор қабулидаги қарама-қарши ўлароқ бундай меҳрибон ижодкор қаршида айниқса, ёшлар тилидан бол томади, лабидан табассум аримайди: “Бобо, бобожон!” Биз билган Денов адабий мухитининг маркази шундай фусункор, мафтун этувчи, оханрабо жойдир.

ДЕНОВ АДАБИЙ МУХИТИ

Денов Чағониённинг энг қадим қишлоқларидан бири. Биз яққалам қилаётган адабий мухитнинг ўқ илдизи Чағониён ва ўша қишлоққа бориб тақалиши аксиома. Қадимги Чағониён ҳудуди эса ҳозирги Ўзбекистон Республикасининг Бойсун, Қизирик, Қумқўрғон, Олтинсой, Шўрчи, Денов, Сарийосиё, Узун туманлари ҳамда Тожикистон Республикасининг жанубий-ғарбий қисмларидан иборат. Ёзма тарихий тошбитиклар Абу Бакр ал-Сағоний, Аҳмад ибн Муҳаммад ас-Сағоний, Абу Ҳамид Устурлобий ас-Сағоний, Абу Али Хусайн ибн Аҳмад Салломий, Абул Қосим Али ибн Муҳаммад Искофий, Тохарий, Маъруфий, Абу Мансур Муҳаммад ибн Аҳмад Дақиқий, Абу Али Салломий мисоли таниқли сиймолар Чағониёнда яшаб ўтганлигидан хабар беради. Тўрт минг йиллик Эрон, Турон тарихини, энг қадим афсона, ривоят, қисса, юздан ортиқ дoston, эллик подшолик, тўртта сулола борди-келдиларини кўкларгача кўтарган, олтиш мингта байтдан иборат “Шоҳнома”дай асарнинг муаллифи Абулқосим Фирдавсий умрининг ўттиз уч йилида ёзганларининг дастлабки минг байти ибн Аҳмад Дақиқийники эди, деган. Бу шунчаки оддий эътирофлардан эмас.

Тошкент тарихидан маълум ва машҳур алломалардан бири хожа Убайдуллоҳдир. У хожа Маҳмуднинг ўғли. Хожа Убайдуллоҳнинг бобоси хожа Ҳованд Тахурнинг отаси шайх Умар Боғистонийдир. У ўғли хожа Ҳованд Тахурга шундай насиҳат қилган: “Болам, мулла бўлма, сўфи бўлма, шайх бўлма, бўлгин мусулмон!” Хожа Убайдуллоҳни “мусулмони ким?” деган сўроқнинг жавоби қизиқтириб қолади. Самарқанд, Бухоро, Хирот уламо-фузалолардан сўроғига жўяли жавоб топаолмайди. Ниҳоят ҳалиги сўроққа жавобни у Чағониён, жумладан деновлик Яъқуб Чархий ибн Усмон ибн Мухаммад ибн Муҳаммад Ғазнавий (1363-1447)дан топади: “Фуқаро манфаатлари учун яшамок — мусулмон бўлмок” экан. Ушбу илмий хулосаси билан мавлоно Яъқуб Чархийни Ғарбий Европа ҳам АК-Шликлардан қарийб уч аср илгари “Касаба уюшмалари”га асос яратган дейиш ўринлидир.

Мирзо Улуғбек “Тўрт улус тарихи” (Чўлпон нашриёти, Тошкент — 1993)да ёзганларидай “... Бухоро лафзи “Бух оро” сўзларидан келиб чиққан бўлиб, мўғуллар тилида “илм мажмаи”. Нар бурса, қайсики илму фан, маънавият, моддий ишлаб чиқариш ривож тогган бўлса, етук олим орифлар яшаса, улар бошқа мамлакатлардан келган фуқароларга ҳам таълим-тарбия бера олса, турли миллат ва элат вакиллари тинч, осойишта яшасалар, одобу ахлоқда, мардлиги саховатда, поклиги эътиқодда, дину диёнатда бутун бону башарга ибрат бўла олса — ундай шаҳарга шариф макоми берилган. Бухоро шундай етти шаҳардан бири эди. Ҳақиқатдан ҳам Бухоро жаҳонга Абу Хафс Кабир ал-Бухорий (Имом хожатбарор, 767-837)дай, Имом ал Бухорий (810-870)дай, Абу Абдулло Рудакий (858-941) ёки Абу Али ибн Сино (980-1037)дай, Аҳмад Яссавий (ваф.1166) ёки Абдулолиқ Гиждувоний (1103-1220) мисоли зотларни тарбиялаб берди. Шайх Умар Боғистонийнинг ўғли шайх Ҳованд Тахур (13 аср охири — 1350) Бухорода ўқиди. У “Ислом арконлари ҳақида”, “Шариат ва тарикат масалалари ҳақида рисола”, “Ўнта шарт ҳақида рисола”, “Тарикат одоби ҳақида рисола” ва бошқа китобларини Бухорода ёзган. Бухоронинг “Шариат, тарикат, маърифат, ҳақиқат”дан иборат тўртта бозори туну кун одамлар билан гавжум. Бу обод ва тўкин бозордан Турди Фароғий, Бобораҳим Машраб, хожа Самандар Термизий, Сўфи Оллоёр бир даврда, бир мақсадда илм савдо қилишганлар. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихида улардан ҳар бирининг ижодидаги муваффақиятлари ўзларига хос ва мос бетақдор бир дунё. Айни дамда бизлар учун Сўфи Оллоёр (1644, Каттақўрғон беклиги Минглар қишлоғи — 1724, Денов) ҳазратлари муҳим. Чунки “Денов адабий мухити” шаклланишида у зоти шарифнинг ҳам ижобий таъсирлари оз бўлгани йўқ. Деновлик ижодкорлардан қайси бири Сўфи Оллоёр шахсияти билан боғлиқ ривоятлар туғёни туфайли шеър, илмий мақола, қисса ё дoston ёзмаган. Айни дамда мен “Гоургон” дostonини ёздим. Дoston ўн уч қисмдан иборат. Унинг мазмун-моҳиятига ҳам форсий, ҳам туркийда қалам тебратган Сўфи Оллоёрнинг илонларга нис-

батан “Тоши юмшоқдир, ичи заҳар” хулосасини сингдириб юбордим. Дostonдан ўқиймиз:

*Тепа эмас, ларзон вужудим
Тупроқ мисол сукута толан.
Қай бир одам тили учиди
Илон захри ўрнашиб қолан.
Илон захри занга ўхшамас
Бировларнинг қонига кўчан.
Бировларнинг жуссаси катта
Юрагидан оқибат ўчган...
Бировларнинг замини заҳар
Осмондан заҳар ётади.
Эрта-ю кеч бемор онаси
Сигридан огу соғади.*

Афсуслар бўлсинки, XXI асрнинг йигирма олтинчи йилларида юқоридагилардан биронтаси ёлгон эмас. Оловли қалб, зиёли кўзимиз қаршида рад қилиш мумкин бўлмаган ғуж-ғуж ҳақиқатлар сабаби табиий ёки илонларнинг захрида эмас, балки замонавий бесавод дипломли, тирноғидан тепа сочигача коррупция балчиғига ботиб кетган жамият ёки одамларнинг ўзида. Аксинча бўлганда “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”да ёзилганидай



Бухоро вилоятининг 94,4 фоиз обикор ери шўрламас, ер ости суви яроқсиз холатга келмас, Бойсун тумани Кофрун қишлоғи олтингурутли табиий, заҳарли газ булутли остида қолмас эди. О, бесавод, бесавия, дипломли банди оғиз. Нималар қилиб қўйдинг, Сен!!

Бир кам дунёда ҳар бир кор(иш)нинг ўз устаси ё кушандаси бор. Симҳари ё қолдай қолдай серзаҳар илонларнинг кушандаси Сўфи Оллоёр. У ўз замонасининг саводли, билимдон, маданиятли, маънавияти, йимон, эътиқоди соғлом ва бутун инсон. Инсон одам мисоли онадан туғилмайди. У онадан туғилган одамнинг жамиятдаги мавжуд соғлом мухит ҳам таълим-тарбиясининг оқибатида шаклланади. Сўфи Оллоёр ҳозирги қорнинг қаддини, музликларнинг оловини топиб, дарёлардаги сувнинг суробини тўриллаётган одамларга ҳеч ҳам ўхшамайди. Қонунсизлик ва коррупция ухлаганда унинг тушига ҳам қирмаган. Дostonда ёзганман:

*Дунё додидир, бир кам қабохат
Ёмонликнинг ўчи бор унда.
Адолатга максан Боботўғ
Қонуларнинг кучи бор унда.
Билми, ишонч, амал шўбҳани
Қалб кўзидан қириб ўчирган.
Ваҳшиямордан Оллоёр мори
Гоургонга зўрлаб кўчирган.
Неча йилдир илон, Гоургон
Тирик жонга заҳар тутуди.
Ундан зада тоғ, тош гиёҳлар
Оллоёрни шитиқ кутади!*

“Ёзиш, — деганлар бобомиз Абу Райҳон Беруний бундан минг йиллар бурун, хабар турларидан бири бўлиб, уни бошқа турлардан кўра шарафлироқ санаш мумкин; қаламнинг абадий излари бўлмаганда, халқларнинг хабарларини қайдан билар эдик?!” Бу ҳукм осмондаги ҳилолдай ҳақиқат. Бирок “Денов адабий мухити” шаклланишида “халқ оғзаки ижоди”нинг ўрнини ҳам рад қилиш қийин. Халқ оғзаки ижоди неча бир асрлардан асрлар оша қайнаб ётган минг кўзли булоққа

ўхшаб кетади. Ундай бетақдор халқ булоқлари сони сон мингта. Улардан бири бир ярим минг қувун пишигини кўрган “Алпомиш” дostonидир. Бу дostonнинг бошқача ишланган турлари ҳам оз эмас. Хусусан, унинг сурхондарёча вариантини ўзим ёдкаш, ижод одами, халқ бахчиси Хушбоқ Мардонакул ўғлидан қанчадан қанча ортага қайтмас вақтини сарфлаб ёзиб олим. Кўп нухсада қайта-қайта чоп этирилиб ва китобхонлар мулкига айлантирилди.

Бизнингча, Барчиноис Алпомиш ҳеч ким. Барчино аввало аёл. Аёлнинг беғубор табассуми беэиё тошни маъданли тоққа, энг тоза темирни симобга айлантириш қудратига эга. Шулар боис Денов адабий мухити ташаббускори каминанинг муштирайд келадиган юраги “Она” десангиз, “Раъно Узокова” десангиз қўёшинг қайноқ тожига айланиб кетади. Чунки у сурхондарёликлар қизи, айни шу юртининг Ҳамид Олимжоннинг назари тушган Зулфияхонимдан кам бўлмаган сурхондарёликларнинг салоҳияти шоираси, ўзбек китобхон фарзандларининг фахридир.

бўлиб етишди... Ўқув масканини 1965 йили тамомлаган Виталий Касабринов Сибирь фанлари академияси академигидир. Алик Кисатаев эса Санкт-Петербург атом энергияси назорати бўлим бошлиғи. 1978 йили мактабни тамомлаган Дилбар Аҳмедова Бухоро вилояти хотин-қизлар кўлигасининг раисаси...” Китобда қайд қилинган ва ислари қайд қилинмаган, ҳавас қилса арзийдиган мактабнинг собиқ ўқувчилари Денов фарзанди, “Денов адабий мухити”га алоқадор давлат ва илм фан арбобларидир.

Хулласи калом, мактаб, таълим-тарбия ҳам “Денов адабий мухити” таъсири сабаб туман миқёсида ё унга алоқадор Ҳамид Бадалов (1928-1995); Менгзиё Сафаров (1938-1994); Аббос Малик (1938-2008); Чори Ёқубов (1940-2003) мисоли ўнлаб таниқли истеъодлар етишди. Улардан ҳар бири ўзбек миллий адабиёти ҳам “Денов адабий мухити” тарихида тенги йўқ, бетақдор сиймолардир. Мисол учун Тоғай Муроднинг ўзи ҳақида ёзган “Мен”ига назар ташлаймиз:

“Саводни мазаси йўқ. Москвада ўқиб келмасам бўлмайди, дедим. Дардим ўқиб бўлмади. Дардим прокуратуралар бўлди, дардим судлар бўлди.

Бир оёғим институтда бўлди, бир оёғим судларда бўлди.

Мен таниш-билиш йўли билан тергов матнларини сотиб олдим. Икки оғиз ахборот олиш учун яримталар куйдим.

Ўшанда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси қиссаларини учун Ойбек мукофоти бериб эди. Ана шу мукофот пулини зиндонлардан ахборот олиш учун сарфладим.

Мен эртадан кечгача судларда ўтирдим. Суд йўлақларида ўтирдим. Суд дарвозаси олдида тик турдим.

Судга киритмас, қўшни уйлар чердагига чиқиб судни пойлаб ўтирдим.

Мен ўз кўзим билан кўрдим, ўзбек халқининг юлдуз зиёлиларини тепиб-тепиб зиндон машинага босдилар. Ўзбек халқининг гултож зиёлиларини уриб-уриб зиндон машиналарига солдилар. Ўзбек халқининг сара зиёлиларини оёқ-қўлидан олиб, зиндон машиналарига отдилар.

Мен Москвада ўқимадим, мен Москвада ўзбек халқининг қайғуси билан яшадим.

Мен ўзбек халқига ҳайкал қўяман!”

Афсуслар бўлсинки, юқоридаги беҳосият ҳайратномалардан қаттиқ хафаланган Тоғай Мурод хайқира-хайқира сўнги сафарига кетди. Мен эса ноилж. Қўлимда оҳори тўқилмаган дастурмоладан бошқа нарса йўқ. Пешонамга Чоршанби Дехнавийнинг “Лайлатулқадр” қиссасини қўйганимча “Ярим хўл ҳазондай тутаетирман, халқдан зўр миллатни кутааетирман!” дедим. Айни дамда халқ билан миллат ўрта-сидаги тафовутларни таҳлил қилиш шарт эмас. Уларсиз ҳам қуйидагилар аниқ. Агар халқ миллат макоми даражасига кўтарилса, бир одам ҳаммага, ҳамма бир одамга айланади, муҳими одамлар одамларнинг асабини эғовламайди, таъбир жоиз бўлса иту-мушук блогерлар бир-бирига устун ва устунгўша бўлади, жамият тараққиётининг кушандаси коррупциядан ном-нишон ҳам қолмайди. Менинг яқка-ю ягона орзумим олам халойиқни миллат макоми шохсупасида қуришдир. Яна бир гап оламда бири биридан айро, беконун буюм-ҳодиса йўқ. Бўлмайди ҳам. Худди шу маънода Борлик, яъни табиат, жамият, инсон ва унинг маънавиятидан “Денов адабий мухити”дан бошқалар мисоли мени ҳам ажратиб бўлмайди. Бизлар ўзаро занжирбанд. Аксинча бўлганда мен 396 бетли “Сурхондарё қасидаси” (Surxon — nashr, 2023)ни, 376 бетли “Бухоро қасидаси” (“MIRON — ABT — DESIGN”, Тошкент — 2023)ни, 358 бетлик “Тожиқ дўстим ўзбекинган” (Тошкент — 2026)ни, 440 бетлик “Тошкентим — дунёлар бешиги” (“Янги япроқ нашриёти” Тошкент — 2026)ни ёзолмас, Президент Шавкат Мирзиёевнинг назарига тушмас, “Дўстлик” ордени билан мукофотланмас, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси аъзолигига қабул қилинмас, қуйидаги шеърий мисраларни тош битикка айлантира олмас эдим:

*Одамдан инсон кўп, таълим-тарбия
Мақтов, маҳзияга чексиз осмон тор.
Иштиёқ, истеъод, ижод, галаба
Уюшма, аъзолик, хужжат менда бор.
Жасоратни муҳит, хужжатдан одим
Бугун шоирликдан кўрқмасдан қолдим!*

Инсон қадрини улуғлаш — юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир. Бу борада жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутади.

МЕДИА МАДАНИЯТ ВА АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Бугунги кунда инсоният ахборот асрида яшамокда. Интернет тармоқлари, ижтимоий платформалар ва рақамли технологиялар ҳаётимизнинг барча жабҳаларига чуқур кириб келди. Бу жараён таълим тизими олдига ҳам янги вазифаларни қўймоқда. Айниқса, бўлажак тарих ўқитувчиларини замонавий ахборот муҳитида самарали ишлаш оладиган, турли манбаларни танқидий баҳолайдиган ва ишончли маълумотларни ажрата билладиган мутахассис сифатида тайёрлаш долзарб аҳамият касб этмоқда.



Тарих фани бошқа фанлардан фарқи ўлароқ, турли манбалар, қарашлар ва талқинларга асосланади. Шу сабабли тарих ўқитувчиси нафақат билим берувчи, балки ахборотни таҳлил қилувчи, унинг ҳаққонийлигини баҳоловчи ва ўқувчиларда муқтакил фикрлашни шакллантирувчи шахс бўлиши лозим. Бу эса унинг ахборот компетентлиги ва медиа маданияти юқори даражада ривожланган бўлишини талаб этади. Ахборот компетентлигини ривожлантириш муайян педагогик механизмлар асосида амалга оширилади. Компетентиявий ёндашувга асосланган таълим, рақамли муҳит билан интеграция, муқтакил изланишга йўналтирилган ўқув жараёни каби омиллар талабаларнинг ахборот билан ишлаш қобилиятини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда назарий билимлар амалий машғулотлар билан уйғунлашганда юқори самарадорликка эришилади. Мутахассисларнинг фикрича, талабани фақат маълумот қабул қилувчи эмас, балки уни қайта ишловчи ва таҳлил қилувчи фаол субъект сифатида шакллантириш замонавий таълим-

нинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади. Шу нуктаи назардан, муаммоли ўқитиш технологиялари, амалий тадқиқотлар, баҳс-мунозаралар ҳамда лойиҳа асосида ўқитиш методлари катта аҳамият касб этади. Муаммоли вазиятлар яратилиш орқали талабалар муқтакил ахборот излашга, турли манбаларни таҳлил қилишга ва хулоса чиқаришга ўрганадилар. Амалий тадқиқот методи эса тарихий воқеаларни турли манбалар асосида ўрганиш, уларни таққослаш ва илмий ёндашув асосида баҳолаш имконини беради. Бу жараён талабаларда аналитик фикрлашни ривожлантириш билан бирга, ахборот компетентлигининг муҳим таркибий қисмларини ҳам шакллантиради. Шунингдек, баҳс ва мунозаралар тарих таълимида алоҳида ўрин тутади. Турли нуктаи назарларни таққослаш, далилларга асосланган фикр билдириш ва ўз позициясини ҳимоя қилиш кўникмалари бўлажак ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширади. Бундай ёндашув ахборотни танқидий баҳолаш маданиятини ҳам шакллантиради. Замонавий рақамли тех-

нологияларнинг таълим жараёнига кириб келиши ахборот компетентлигини ривожлантириш учун янги имкониятлар яратмоқда. Электрон кутубхоналар, рақамли архивлар, мультимедиа воситалари ва интерактив платформалар тарихий маълумотларни чуқурроқ ўрганиш имконини бермоқда. Видео материаллар, инфографикалар ва интерактив хариталар орқали тарихий жараёнларнинг мазмунини янада аниқ ва таъсирчан тарзда англашларида. Бирок таҳлиллар шунини кўрсатадики, олий таълим муассасаларида ахборот компетентлигини ривожлантириш имкониятлари мавжуд бўлсада, улар ҳали етарлича тизимли эмас. Компетентиявий ёндашувнинг тўлиқ жорий этилмаганиги, рақамли технологиялардан фойдаланиш даражасининг пастлиги ҳамда талабаларнинг муҳим таркибий қисмларининг етарли даражада ривожланмаганиги асосий муаммолар сифатида намойён бўлмоқда.

Бу муаммоларни бартараф этиш учун таълим жараёнида медиа саводхонликка алоҳида эътибор қаратиш зарур. Медиа маданияти нафақат ахборотни қабул қилиш, балки уни тушуниш, баҳолаш ва тўғри қўллаш қобилиятини ҳам қамраб олади. Айниқса, тарих соҳасида турли маф-

дақикот олиб бориш қобилиятини оширади. Муайян мавзу бўйича ахборот тўплаш, уни таҳлил қилиш ва натижаларни тақдим этиш жараёни медиа маданият ва ахборот компетентлигининг барча таркибий қисмларини шакллантиришга хизмат қилади. Шу билан бирга, рақамли таълим платформаларидан самарали фойдаланиш талабаларни замонавий ахборот муҳитида эркин ҳаракат қилишга ўргатади. Бу эса уларнинг келажақда ўқувчилар билан ишлаш жараёнида ҳам рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш имкониятларини кенгайтиради. Бугунги кунда жамиятнинг барқарор ривожланиши билимли, танқидий фикрлайдиган ва медиа саводхон кадрларга боғлиқ. Шу нуктаи назардан қараганда, бўлажак тарих ўқитувчиларининг ахборот компетентлиги ва медиа маданиятини ривожлантириш нафақат таълим тизимининг, балки бутун жамият тараққиётининг муҳим шарти ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, ахборот компетентлиги ва медиа маданиятини шакллантириш бўлажак тарих ўқитувчисининг касбий тайёрлигининг ажралмас қисмига айланмоқда. Компетентиявий ёндашув, рақамли технологиялар, интерфаол методлар ва инновацион педагогик технологияларнинг тизимли қўлланилиши тарих таълими самарадорлигини ошириш билан бирга, замонавий ахборот майдонида эркин ва масъулиятли фаолият юрита оладиган мутахассисларни тайёрлашга хизмат қилади. Бу эса келажак авлоднинг тарихий онги, муқтакил фикрлаши ва ахборот маданиятини юксалтириш йўлида муҳим қадам бўлиб қолади.

**Лочин МУХАММАДИЕВ,
Чирчиқ давлат педагогика университети Гуманитар фанлар факультети Ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари**

FARZAND KELAJAGI – TARBIYA, ISHONCH VA TO‘G‘RI YO‘NALISHDA

Bugungi kunda yoshlar oldida turgan eng muhim masalalardan biri — to‘g‘ri kasb tanlashdir. Zamonaviy dunyo juda tez o‘zgarimoqda, yangi sohalar paydo bo‘lmoqda, mehnat bozori esa mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababli farzandining kelajagi haqida qayg‘urayotgan har bir ota-ona uchun eng muhim vazifa — uning ichki qiziqishi, qobiliyati va intilishlarini to‘g‘ri anglashdir.

Bugun davlatimiz tomonidan ham kasbiy ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilinayotgan qaror va farmonlar yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish, ularning bandligini ta‘minlash hamda raqobatbardosh mutaxassis qilib tayyorlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz “Kasbiy ta‘lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida kasbiy ta‘lim tizimini 2030–yilgacha tubdan rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan.

Qarorga muvofiq, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta‘lim bilan qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga yetkazish, dual ta‘lim ulushini 40 foizgacha oshirish, xalqaro ta‘lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini ko‘paytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab bolalarni kasbga yo‘naltirishning yangi tizimi joriy etilishi ham ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra, bolalarda kasblarga qiziqish shakllantirish, “Kasblar alifbosi”, “Kasblar olami”, “Mening kelajakdagi kasbim” kabi dasturlar orqali o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyati erta aniqlanadi.

Mutaxassislar fikricha, bola uchun “to‘g‘ri kasb”ni aniqlashda eng muhim omil — uning ichki qiziqishi va tabiiy qobiliyatidir. Chunki inson o‘zi yaxshi ko‘rgan ish bilan shug‘ullanganda charchamaydi, o‘zini rivojlantirishga intiladi va muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Faqat diplom olish yoki kimningdir istagi bilan tanlangan kasb insonni haqiqiy baxtli qila olmaydi. Shu bois ota-ona va ustozlar bolaning qaysi ishda ko‘zi chaqnashi, nimani zavq bilan bajarishiga alohida e‘tibor qaratishi kerak.

Qobiliyatni erta yoshdanoq payqash mumkin. Ayrim bolalar texnik buyumlarni buzib-tuzatishga qiziqsa, boshqalari rasm chizishga, yana kimdir insonlar bilan tez muloqot o‘rnatishga moyil bo‘ladi. Muhimi, bolani boshqalar bilan taqqoslamaslikdir. “Qo‘shnining bolasi shunday” degan gaplar farzandning ishonchini pasaytirishi mumkin. Aksincha, unga erkin muhit yaratib berish, xatodan qo‘rqmaslikka o‘rgatish va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash iste‘dodning ochilishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kasbiy ta‘lim sohasiga bo‘lgan e‘tiborning ortishi ham aynan yoshlarning qobiliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “2026-yil — yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili bo‘ladi”. Shu maqsadda Kasbiy ta‘lim agentligi tashkil etildi va mamlakatdagi 598 ta texnikum faoliyatiga xalqaro standartlar joriy etilmoqda.

Afsuski, ba‘zan ota-onalar o‘z orzu-istaklarini farzandi orqali amalga oshirishga harakat qiladi. Bu esa bolaning kelajak tanloviga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki majburlab tanlangan kasb vaqt o‘tishi bilan zerikish, qiziqishning yo‘qolishi va hatto ruhiy charchoqqa olib keladi. Bolaning hayoti — uning o‘z hayoti. Shu sababli ota-onaning vazifasi farzandga bosim o‘tkazish emas, balki yo‘l ko‘rsatish va qaror qabul qilishda unga hamroh bo‘lishdir.

Hozirgi mehnat bozori esa mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Texnologiya, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt ta‘sirida yaqin yillarda ko‘plab kasblar o‘zgaradi. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, mavjud kasblarning katta qismi avtomatlashtiriladi va yangi

malakalar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarga faqat kasb emas, balki moslashish ko‘nikmasini ham berish muhim. IT, texnologiya, servis, til bilish va kreativ fikrlash kelajakning asosiy yo‘nalishlariga aylanmoqda.

Kasb tanlashda qiziqish va daromad masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Faqat pul uchun tanlangan kasb insonni uzoqqa olib bormaydi. Shu bilan birga, faqat qiziqishning o‘zi ham yetarli emas. Muhimi — bola yaxshi ko‘radigan va kelajagi bor sohani topa bilishdir. Qiziqishni zamonaviy ko‘nikmalar bilan boyitish orqali inson ham ishidan mamnun bo‘ladi, ham munosib daromad topadi.

Oliy o‘quv yurtiga tayyorgarlik jarayonida ota-onaning munosabati juda muhim ahamiyatga ega. Bu davrda farzandni tanqid qilish emas, aksincha, ruhlantirish kerak. “Sen qila olasan”, “Harakatingni ko‘ryapman” kabi oddiy so‘zlar ham katta kuch bag‘ishlaydi. Imtihon davrida oilada tinch va iliq muhit bo‘lishi farzandning o‘zini erkin his qilishiga yordam beradi. Abituriyentlarda imtihon oldidan qo‘rquv va stress holatlari ko‘p uchraydi. Shu bois bolaga imtihon hayotning oxiri emasligini tushuntirish kerak. Ota-ona va ustozlar natiждан ko‘ra harakatni qadrlasa, yoshlar o‘zini erkin va ishonchli his qiladi. Rejali tayyorgarlik, yetarli uyqu, telefondan to‘g‘ri foydalanish va qisqa dam olishlar ham psixologik barqarorlik uchun muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda kurslar, onlayn ta‘lim platformalari va sun‘iy intellekt imkoniyatlari yoshlar uchun katta ustunlik yaratmoqda. Ilgari ma‘lumot topish qiyin bo‘lgan bo‘lsa, hozir bir telefon orqali dunyoning eng yaxshi darlarini ko‘rish mumkin. Sun‘iy intellekt tushunilmagan mavzularni soddalashtirish, testlar tuzish va reja ishlab chiqishda yordam beradi. Lekin texnologiya hech qachon ustoz va tarbiya o‘rnini bosa olmaydi. U faqat vosita, asosiy harakat esa insonning o‘ziga bog‘liq.

Agar farzand birinchi urinishda o‘qishga kira olmasa, buni mag‘lubiyat sifatida qabul qilish noto‘g‘ri. Bitta imtihon inson taqdirini belgilab bermaydi. Ba‘zan inson aynan muvaffaqiyatsizlik orqali o‘zini topadi, kuchliroq bo‘lib qaytadi. Eng yomoni — bolani kamsitish yoki unga nisbatan ishonchsizlik bildirishdir. Aksincha, bu vaziyatni tahlil qilish, xulosa chiqarish va yana harakat qilishga ruhlantirish kerak.

Farzand tarbiyasi va uning kelajagi haqida so‘z ketganda, eng muhim xulosa shundan iboratki, ota-ona farzandini boshqalar bilan emas, kechagi o‘zi bilan taqqoslashi kerak. Shuningdek, farzandni eshitish, uni tushunish va qo‘llab-quvvatlash har qanday nasihatdan ko‘ra muhimroqdir. Bejizga ajdodlarimiz tarbiyani hamma narsadan ustun qo‘ymagan. “Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng.

Agar husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nol qo‘shiladi — 10 bo‘ladi. Agar boy bo‘lsa, yana bir nol qo‘shiladi — 100 bo‘ladi. Agar nasl-nasabi bo‘lsa, yana bir nol qo‘shiladi — 1000 bo‘ladi. Ammo 1 raqami — ya‘ni xulq yo‘qolsa, qolgan nollarning qadri qolmaydi”.

Shuning uchun farzandga beriladigan eng katta meros — bu yaxshi tarbiyadir.

**Kimyo NASRIDINOVA,
Sergri tuman 1-son texnikumi
Yoshlar ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari**

ADABIYOT TA‘LIMINING BUGUNI VA ISTIQBOLI MUHOKAMA MARKAZIDA

Shahrisabz azaldan ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat markazlaridan biri sifatida e‘tirof etib kelinadi. Ana shu ezgu an‘analar davomchisi sifatida Shahrisabz davlat pedagogika institutida Til va adabiyot kafedrasida tashabbusi bilan “Adabiyot o‘qitishning nazariy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi yuqori saviyada tashkil etildi.

Mazkur anjumanda respublikamizdagi oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlaridan tashrif buyurgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda iqtidorli talabalar ishtirok etdilar. Konferensiyada adabiyot ta‘limining bugungi holati, mavjud muammolari va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish hamda ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Ma‘lumki, adabiyot millatning ma‘naviy xotirasi, estetik tafakkuri va madaniy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Uni yosh avlodga zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rgatish, badiiy tafakkur va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Shu bois konferensiyada adabiyot o‘qitish metodikasi, badiiy asar tahlili, innovatsion pedagogik

texnologiyalar, raqamli ta‘lim muhitida adabiyot fanini o‘qitishning dolzarb masalalari atroflicha muhokama qilindi. Anjumanni Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori, professor Mash‘al Saidov tabrik so‘zi bilan ochib, mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya va ilm-fanni rivojlantirish, yoshlarning ma‘naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda adabiyot ta‘limi samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini alohida ta‘kidladi.

Yalpi majlisda Qarshi davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Amin To‘rayev, Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Rayxona Tillayeva hamda respublikaning yetakchi olimlari tomonidan adabiyot ta‘limining nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan mazmunli ma‘ruzalar tinglandi.

Konferensiyaga xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli bo‘ldi. ZOOM platformasi orqali Qozog‘istonning Atyrau universiteti dotsenti Karlygash Ashirkhanova ishtirok etib, “Turkiy xalqlar dunyosida adabiyot o‘qitishning o‘rni” mavzusidagi ma‘ruzasi bilan qatnashdi. Bu esa turkiy xalqlar adabiy merosini o‘rganish va o‘qitish borasidagi ilmiy aloqalarni



yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Konferensiyada Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistrantlari, xususan, O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistrantlari, O‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi doktorantlari ham faol ishtirok etib, o‘z ilmiy izlanishlari natijalarini taqdim etdilar. Ularning ma‘ruzalari adabiyotshunoslik va ta‘lim metodikasi sohasidagi dolzarb muammolarga bag‘ishlangani bilan e‘tibor qozondi. Yosh tadqiqotchilarning ilmiy faolligi mamlakatimizda ilmiy maktablar davomiyatini ta‘minlash va ilm-fanning yangi avlod vakillarini tarbiyalash borasidagi muhim masalalarni taqdim etiladi. Ularning ma‘ruzalari adabiyotshunoslik va ta‘lim metodikasi sohasidagi dolzarb muammolarga bag‘ishlangani bilan e‘tibor qozondi. Yosh tadqiqotchilarning ilmiy faolligi mamlakatimizda ilmiy maktablar davomiyatini ta‘minlash va ilm-fanning yangi avlod vakillarini tarbiyalash borasidagi muhim masalalarni taqdim etiladi. Ularning ma‘ruzalari adabiyotshunoslik va ta‘lim metodikasi sohasidagi dolzarb muammolarga bag‘ishlangani bilan e‘tibor qozondi.

Anjuman yakunida faol ishtirok etgan ma‘ruzachilar, olimlar, magistrantlar, doktorantlar va tashkilotchilar institut sertifikatini hamda esdalik sovg‘alari bilan

taqdirlandilar. Bu e‘tirof ilm-fan ravnaqi yo‘lida fidokorona mehnat qilayotgan yuqorilari faoliyatiga berilgan munosib baho bo‘ldi.

Shahrisabzda o‘tkazilgan mazkur nufuzli ilmiy anjuman adabiyot ta‘limining nazariy asoslarini yanada takomillashtirish, ilmiy hamkorlikni mustahkamlash hamda ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lidagi muhim qadam sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

**Sharipboy BOBOJONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Til va adabiyot kafedrasini mudiri, Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Numon AXMEDOV,
Rus tili va adabiyoti kafedrasini katta o‘qituvchisi.
Mirsanjar SANAYEV,
Til va adabiyot kafedrasini o‘qituvchisi**

” Ватанга садоқат билан хизмат қилиш мактабини ўтаган навқирон ўғлонларимиз ишончли таянч ва суянч бўлиб хизмат қилади.

ҲОКИМ ЭЪТИБОРИ КЎНГИЛЛАРГА ҒУРУР БАҒИШЛАДИ

Инсон дунёга келар экан эзгу ниятлар билан яшайди. Мана шу мақсадларни рўёбга чиқариш учун, тинимсиз изланади ва машаққатли меҳнат қилади. Айниқса, ижод ахли тунларни кунларга улаб ижод қилади ва кўнгил кечинмаларини қозғога тушириб китобхонларга ҳавола этади.



Мана шундай тиниб-тинчимас ижодкорлардан бири Халқаро адабиёт, санъат, маданият ва ижтимоий фанлар Академияси, Бутунжаҳон ижодкорлар уюшмаси аъзоси, журналист Тўрамурад Раҳмондир. Бу ўз Ватанини жондан севадиган, бутун умр халқ дарди билан яшашни ўзининг муқаддас инсонийлик бурчи, деб билган ижодкор мана 44

қиб, кўкрак нишонлари ва қимматбахо совғалар билан тақдирланди. Жорий йилнинг февраль ойида Туркия давлатининг Истамбул шаҳрида ўтказилган Халқаро анжуманда иштирок этиб, “Kardesh halklarin dostlugi” кўкрак нишони билан тақдирланиб қайтди. Тожикистон Республикасининг Душанбе шаҳридан ҳам кўлаб кўрсатув ва репортажлар тайёрлаб ижтимоий тармоқ орқали мухлислар эътиборига ҳавола этди. Кун кеча у Миср Араб Республикасининг мўъжизакор Шарм-эл Шайх шаҳрида ўтказилган Халқаро конференцияда иштирок этиб “Дўстлик рамзи” Ўзбекистон ва Миср Давлат байроқлари рамзи туширилган кўкрак нишони ва қимматбахо совғалар билан ўз ватанига қайтди. Мана шу хорижий мамлакат халқларининг турмуш тарзи, яшаш шариити, шаҳарнинг диққатга сазовор жойларининг ҳақида кўлаб видеоорликлар, лавҳалар, репортажлар ва кўрсатувлар тайёрлади.

Камтарин бу ижодкорнинг эришган муваффақиятлари ўзи туғилиб ўсган, вилоятимизнинг энг сўлим масканлардан бири Олтинсой туманида катта хурсандчилик билан кенг нишонланди. Туман ҳокимлиги-

нинг мажлислар залида уни эришган ютуқлари туман ҳокими Отабек Рус-тамович Мавлянов томонидан хурсандчилик билан эътироф этилди. Миср Араб Республикасидан олиб келинган совға саломларни кўздан кечирар экан, ижодкорлар юрти саналган Олтинсой туманидан етишиб чиққан Тўрамурад Раҳмондек ижодкорнинг номини фахр билан тилга олди, хорижий давлатларда эришган зафарлари билан муборакбод этиб, келгуси ишларига омадлар тилади.

Ўз навбатида сўз олган шоир ва журналист Тўрамурад Раҳмон ҳам хорижий мамлакатларга юрган пайтида ўзи туғилиб ўсган Ўзбекистон юртининг тинчилиги ва фаровонлигини таъминлаётган Мухтарам Президентимиз ва вилоят, туман ҳокимларига ҳамда, мана шу хорижий сафарига боришига яқиндан ёрдам бераётган Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ректори Ойбек Рўзиёев ва Ахборот-ресурс маркази муdiri Шерали Исакуловларга ўз миннатдорчилигини изҳор этди.

Юқорида айтганимиздек инсон яши ниятлар, эзгу мақсадларни кўлаб яшайди. Мен устозим Тўрамурад Раҳмонга келгуси ижодий ишларига зафарлар ва хорижий сафарига омад ёр бўлишини тилаб қоламан.

Ҳавасим келади сизга, эй, устоз!..

Наргиза ЭРДОНАЕВА, Ахборот ресурс маркази ходими

ЎЗБЕКИСТОН БАЙРОҒИ ҲИЛПИРАЁТГАН ХОНАДОН

Олтиариқлик устоз Ҳамиджон Раҳимов ҳаётига чизгилар

Инсон дунёга келар экан, эзгу мақсадлар ва буюк орзулар огушида яшайди. Халққа сидқидилдан хизмат қилишни ўзининг инсонийлик бурчи, деб билади. Ёш авлодни комил инсон қилиб тарбиялашда устоз ва мураббийларнинг хизматлари бекиёсдир. Мана шундай ўз касбининг фидойи устозлардан бири Фарғона вилояти, Олтиариқ туманида жойлашган ихтисослаштирилган билим масканининг директори Ҳамиджон Раҳимовдир. Бу инсон ўз умрининг 50 йилдан ортиқ вақтини ёш авлод таълим ва тарбиясига бағишлади. Устоз раҳбарлик қилаётган билим даргоҳида бугунги кунда 320 нафар иқтидорли ўқувчилар билим олмоқда, уларга 35 нафар малакали ўқитувчилар таълим бермоқда.



Биз ушбу билим даргоҳи фаолияти билан танишар эканмиз, ўқувчиларнинг турли фанлар бўйича эришган муваффақиятларини кўриб кўзимиз қувонди. Олий таълим даргоҳига кириш 100% натижани ташкил этиш билан бирга, бу билим даргоҳи ўқувчилари Республика миқёсида ўтказилган бешлашувларда фахрли ўринларни эгаллаб келмоқда. Менга ҳам мана шундай олий бахт — Фарғона политехника университетига информатика фанидан Университет гранти учун ўтказилган олимпиадада голиб бўлиб, фахрли биринчи ва учинчи ўринни эгаллаган ҳамда 100% лик давлат грантини олган ўқувчиларни эришган муваффақиятлари билан самимий муборакбод этиш насиб этди.

Ихтисослаштирилган таълим муассасалари агентлиги тизимидаги мактаб ўқувчилари ўртасида ўтказилган “Заковат” интеллектуал ўйинида мактаб иқтидорли ўқувчилари орасидан саралаб олинган “Феномен” жамоаси илҳом бўлиб 2-ўринни эгаллаб, республика босқичида иштирок этиш ҳуқуқини кўлга киритдилар ҳамда республика босқичида муносиб иштирок этдилар.

Ҳамиджон Раҳимов ўз ҳаёт йўлини сеvimли ўқувчиларисиз ва жонажон билим даргоҳисиз тасаввур қила олмайди. Шу нарсани фахр билан айтишим кераки, вилоят Директорлар кенгаши раиси, Халқ депутатлари Фарғона вилоят Кенгашининг депутати лавҳамиз қаҳрамони қатор йиллардан буён меҳнат таътилига чиқшини мутлақо унутган. У ҳар бир кунини мактаб билан боғлайди. Ҳамиджон Раҳимов вилоят халқ таълим соҳасида ўзига хос услуб ва намунали мактаб яратишга эришган устозлардан биридир. Мени диққатимни тортган янгиликлардан бири, ўқувчилар ёзги таътил мавсумида ҳам ўзларига берилган мактаб дарслик-

мактабда ўқитувчиларга яратилган шароит ва таълим сифатига қаратилган эътиборни кўрган инсоннинг кўзи қувнайди. Байрамона безатилган бу билим даргоҳида бўлиб ўтган ҳисобот йиғилишига Фарғона вилояти Директорлар кенгаши тавсиясига биноан бир ой олдин тайинланган раҳбар Дониёр Ҳасанов ташаббуси билан туман мактаб ва мактабгача таълим муассасалари раҳбарлари тақлиф этилди. Барча туман, шаҳарларга Директорлар кенгаши тавсияси билан тайинланган директорлар тантанали йиғилиши устоз Ҳамиджон Раҳимов кириш сўзи билан очиб, барча йиғилганларни бугунги шодиёна билан самимий муборакбод этди. Анжуманда энг қувончли воқеанинг гувоҳи бўлиш асносида, устоз бутун умрини болаларга бағишлаганини яна бир қарра шохиди бўлдим. Бутун ҳаётим давомида ўз касбига бунчалик фидойи инсонни кўрмаган эдим. Туман ҳокими Тожиҳакимов Шухратжон Нурмуҳаммадович сўз олганида, устоз Ҳамиджон Раҳимовга, — Марҳамат жойингизга ўтиринг, мен узоқ маъруза қиламан, — дея хурмат билан мурожаат қилди. Шунда устоз, — йўқ, раҳмат сиз билим ва илм ҳақида гапираётганингизда бир соат эмас, керак бўлса бир кун тикка туришга тайёрман, — деган пурмаёно сўзларни айтди. Мен устоз тимсолида, бутун умрини ёшлар камолотига бағишлаган ҳақиқий, фидойий Ҳазрати инсонни кўрдим.

Олтиариқ туманидаги 34-умумий ўрта таълим мактаби директори, устознинг ҳақиқий шогирди Мафтуна Бегматовна тимсолида ҳам ўз касбини жондан севгучи раҳбарни кўрдим. Кеч соат 19-20 бўлишига қарамастан, Мафтуна Бегматовани билим даргоҳида учратдик. Менинг қалбимни ҳаяжонга солган нарса, мактаб директорининг ёлғиз фарзанди онасини иш вақтини туғашини кутиб, ташқарида дарс қилиб ўтирганлигининг жонли гувоҳи бўлдим. Мана, сизга ўз касбини жондан севиш ва ҳақиқий ватанпарварлик! Мактаб ҳовлисига кирган инсоннинг қалби ёришади. Тоза, озода ҳовлилар, синфхоналар ва полиз маҳсулотлари учун махсус ташкил этилган иссиқхонада помидор ва бодиринглар пишиб ётибди. Япония технологиясига мўлжалланган ушбу билим масканида таълим сифати назорати биринчи ўринга қўйилган. Олий таълимга кириш кўрсаткичи ҳам энг юқори.

Беш кун мобайнида Ўзбекистон Республикаси Халқ ўқитувчиси Ҳамиджон Раҳимов билан бирга Фарғона вилоятининг Олтиариқ, Данғара, Риштон, Ўзбекистон, Тошлоқ туманларида таълим — тарбияга берилган эътибор билан яқиндан танишдик. Мен шу нарсанинг гувоҳи бўлдимки, устоз бошчилигидаги вилоят Директорлар кенгаши аъзолари ва барча туман ҳокимлари савий-ҳаракатлари туфайли Фарғона таълим соҳасида яратилган. Мактаб ва мактабгача таълим раҳбарларнинг ўз ишига меҳр билан ёндашганлиги боис, Олтиариқ туманида янги таълим — Олтиариқ таълим соҳаси яратилди. Республика бўйича мана шу таълим соҳаси билан оммалаштиришни лозим деб ўйлайман. Зеро, мактаб ва ўқувчи ўртасида юзага келган бўшлиқни мана шу таълим соҳаси тўлдирди дея ишонч билан айта оламан.

Тўрамурад РАҲМОНОВ, Халқаро адабиёт, санъат, маданият ва ижтимоий фанлар Академияси, Бутунжаҳон халқ ижодкорлар уюшмаси аъзоси.

МЕҲНАТИДАН ҚАДР ТОПГАН ИНСОН

Бахт. Инсон бутун умр мана шу биргина сўзга эришиш учун яшайди ва меҳнат қилади. Бу сўз унинг умрини безайди. Бу сўзнинг қамрови кенг. Дунёга келишининг, туғилишининг ўзи бир бахт. Мактабга бориш, уни тугатгандан сўнг, олийгоҳга кириш, мустақил оила қуриш, фарзандлар камолини кўриш ҳамда севган касбида меҳнат қилишининг ўзи катта бахт. Том маънода мана шундай бахтли инсонлардан бири, ҳуқуқшунос Нейматилла Абдулазизовдир.



президенти Адҳамбек Алимбеков, Академик Абдуманноп Зиёев, ижодкорлар уюшмаси аъзоси таниқли шоир ва журналист Тўрамурад Раҳмон ва бошқалар Нейматулла Абдулазизовни бугунги шодиёна билан муборакбод этиб, келгуси ижодий ишларига омадлар тилашди. Мактаб ўқувчилари ва филармония хонандалари ижросидаги куй, кўшиқ ва расмлар кечага ажойиб файз киритди. Ўз навбатида сўз олган Нейматилла Абдулазизов ҳам ушбу кечага йиғилган меҳмонларга, синфдошлари, қавму-қариндошлари ва ушбу кечани юқори савияда ўтказишга бош-қош бўлган Туман мактабгача ва мактаб таълими раҳбариятига, мактаб директори ва унинг жамоасига ўзининг самимий миннатдорчилигини изҳор этди.

Ўз касбининг устаси, Халқаро адабиёт санъат маданият ва ижтимоий фанлар Академияси Бутунжаҳон халқ ижодкорлари уюшмаси аъзоси Нейматилла Абдулазизов бугунги

кунда Ўзбекистон Давлат филармонияси Тошкент вилояти бўлимида ҳуқуқшунос лавозимида фаолият олиб бормоқда. Таниқли ҳофиз Бекмурод Жўраев раҳбарлик қилаётган бу ахл жамоа аъзолари устознинг эришган ютуқлари билан самимий муборакбод этдилар. Бугунги кунда бу жамоада 52 нафар ходим халқимизга сидқидилдан хизмат қилмоқда. Жорий йилнинг 15 март санасида жамоа саянаторлари Тошкент шаҳридаги Халқлар дўстлиги санъат саройида “Нурафшон наволари” деб номланган катта концерт дастурини намоиш этиб, халқимиз эътиборини қозондилар. Бу борада ташкилий масъули раҳбариятига, мактаб директори ва унинг жамоасига ўзининг самимий миннатдорчилигини изҳор этди.

Ўз касбининг устаси, Халқаро адабиёт санъат маданият ва ижтимоий фанлар Академияси Бутунжаҳон халқ ижодкорлари уюшмаси аъзоси Нейматилла Абдулазизов бугунги

У ёшлигидан ҳуқуқшунос касбини эгаллашга қизиқди. Бу қизиқиш, Москва давлат юридик институти Хабаровск шаҳридаги факультети томон етаклади. Кундузи ҳуқуқ-тартибот идораларида ишлаш билан бирга, кечки таълимда ўқиди. Олийгоҳни муваффақиятли тугатган, Ватанига қайтиб, ўз севган касби бўйича меҳнат қилди. Хусусан, Олмалиқ шаҳар адвокатурасида, Ангрен шаҳар судида, Ангрен Логистика маркази каби кўплаб ташкилотларда ҳуқуқшунос вазифасида фаолият олиб борди. Халол меҳнати туфайли кўплаб натижаларга эришди. 2013 йилда “Ҳуқуқ қомуси” НТМ томонидан Фахрий доцент илмий унвонига сазовор бўлди. Ҳозирда Ўзбекистон Давлат филармонияси, Тошкент вилояти бўлимида ҳуқуқшунос вазифасида меҳнат қилмоқда.

Оҳангарон тумани, 12-сонли умумий ўрта таълим мактабида, 35 йилдан ортиқ ҳуқуқ соҳасида меҳнат қилганлигини инобатга олиб тантанали адабий-бадиий кеча ташкил этилди. Унда Тошкентдан ташриф буюрган кўлаб ёзувчи, шоир ва олимлар қатнашди. Кечани кириш сўзи билан очган Халқаро адабиёт, санъат, маданият ва ижтимоий фанлар Академияси раҳбари Абдулла Менгқобилов ва меҳмонлар иштирокида ижтимоий соҳа вакили Нейматилла Абдулазизов Халқаро адабиёт, санъат, маданият ва ижтимоий фанлар Академияси Бутунжаҳон халқ ижодкорлари уюшмасининг аъзолигига қабул қилинди. Ҳамда унга аъзолик гувоҳнома, диплом ва кўкрак нишонини тантанали равишда топширди. Шундан сўнг сўз олган Академик Мадраҳим Сафарбоев, Академия вице-

Ишонч билан айтиш мумкинки, бизнинг халқларимизни минтақавий ўзига хосликни англаш туйғуси бирлаштирмақда ва бу туйғу тобора кучайиб бормоқда. Бизнинг нафақат тарихимиз, балки келажакимиз, ҳаётий муҳим манфаатларимиз ҳам умумий ва муштаракдир. Минтақавий ҳамкорлигимизни кенгайтиришдан бошқа йўлимиз йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас!

БУЮКЛАР ТАН БЕРГАН БУЮК ДОСТОНИМ — ЎЗБЕКИСТОНИМ...



Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Эркин ВОҲИДОВ 1936 йил 28 декабрда Фарғона вилоятининг Олтиариқ туманида туғилган. Илк шеърий тўплами — “Тонг нафаси” 1961 йилда нашр этилган. Кейинги тўпламлари билан шоир шеърхонларнинг юксак муҳаббатини қозонди. Шоир “Палаткада ёзилган достон”ида халқнинг сабот ва матонати, руҳий олами гўзаллигини куйлаган бўлса, “Ёшлик девони”да мумтоз адабиётнинг энг яхши аъналарини давом эттирди ва кўҳна газалга янги руҳ бағишлади. У 2016 йил 30 майда вафот этган.

ЎЗБЕКИСТОН

Юртим,
Сени яна олдим қаламга,
Туйинг, шодийнаг баҳона бўлиб,
Яна келиб кўндинг тонгги мисрамга
Фалак нисор этган дурдона бўлиб.
Иқбол нешонамга битган оёғим —
Ўзбекистоним.

Толеим бор экан,
Сенга ҳамнафас,
Отанин кўёшинг билан йўғрилдим.
Юз йил аввал эмас, юз йил сўнг эмас,
Тугғили асрда сенда туғулдим.
Гуллар сочдинг мен илк босган қадамга,
Бағринг менга нурли қошона бўлиб.
Жаҳон ичра менинг тенгсиз жаҳоним —
Ўзбекистоним.

Мақсад манзилида довои ошган дам,
Ўйлач ҳам бир тўхтаб олгандек нафас,
Марзагача этиб борган дехқон ҳам,
Орта боқиб бир зум қилгандек хавас,
Элик баҳор кўриб ҳаёт боғида,
Умр камолга кўл чўзиб инсон,
Олтин дарвозани чертган чоғида,
Сарҳисоб қилади умрин беғумон.
Босиб ўтган йўли шунда одамга
Туолади минг бир поғона бўлиб.
Минг бир довои ошган аял паҳлавоним —
Ўзбекистоним.

Асли элик эмас, элик минг ёшинг,
Кечмишинг тарихлар нариёғида.
Тўмарисдек она Кайхисрав бошин
Қон тўла санюнга солган чоғида,
Спитомен камон тутиб дастида,
Мароқандни сақлаб турганда узоқ.
Ёвни адаштириб ўлим даштида,
Кўкрак очиб қаҳ-қаҳ урганда Широқ,
Ҳали ўзбек эмас, лекин оламга
Машҳур эдинг соқу суғди она бўлиб.
Искандарни мажруҳ этган камоним —
Ўзбекистоним.

Ваҳшат водийсида кечди асрлар,
Алжабр устодин тукқунча еринг.
Илминг юксалгунча Беруний қадар,
То Алишер қадар етгунча шеъринг.
Хайратга солгунча фан оламини
Фарғоний чиқарган аниқ ҳисоблар...
Тебранса не ажаб Тошкент замини,
Бу ерга кўмилган миллиард китоблар.
Фарангу ҳинду чин, проқ, ажазма
Таралдинг Алқонун, Сайдона бўлиб.
Буюклар тан берган буюк достоним —
Ўзбекистоним.

Минг бора тикландинг, минг бор қуладинг,
Ёвлар қамчисидан чекканда озор —
Алпомиш сингари ўғлон тиладинг,
Тиладинг Гурўли сингари сардор.
Сен ҳам гуллар териб умид боғидан,
Толе орзусида туздинг алёрлар.
Аммо буталаринг кўнғирогидан
Чўлларда тўқилиб қолди оҳ-зорлар.
Умринг эгиз бўлди андуҳ аламга,
Орзуларинг бари афсона бўлиб.
Барчининг кўксига қолган армоним —
Ўзбекистоним.

Замин дардича бор бир аёл дарди,
Ойнинг доғи балки унинг доғидан.
Фарёд олов бўлса олам ёнарди,
Шарқлик жувонларнинг чеккан оҳидан.
Зебунисо ўтди танҳо ва маҳзун,
Бошида ўт бўлиб малика тожи.
Тун бўлиб ёйлар Қўқонда ҳар кун
Нодирабегимнинг қирқилган сочи.
Аёл!
Тўрт деворда кўмилдинг рамга,
Газалларда фақат жонона бўлиб.
Барнодек, Анбардек дили сўзоним —
Ўзбекистоним.

Ҳали сокин туман чулғаб бағрини,
Ғафлат уйқусида ётарди олам,
Умид қаламида “Кўёш шаҳри”ни
Ҳали ёзмаганида Кампанелла ҳам.
Нажот кўзи билан мағрибга боқиб,
Кўҳна Хоразмдан йўл олган карвон.
Ёвмут саҳросида ойлар улоқиб,
Масков тупроғига етганда омон.
Ўзбеклар тўққан шоҳи, гиламга
Бокқанда зарифлар ҳайрона бўлиб,
Дўстлик “Ипак йўли” очган карвоним —
Ўзбекистоним.

Дарвозанин очдинг мағрифат, фанга,
Сенга ошно бўлди Пушкин каби зот.
Лекин бахту иқбол қулмади санга,
Ҳали олис эди сен кутган нажот.
Эрк дея аталган табаррук шамга
Интилдинг бир умр парвона бўлиб,
Парвонадек куйиб ўртанган жоним —
Ўзбекистоним.

Дардингни куйлади анҳорларингда
Ғижирлаб айланган кўҳна чархпалак,
Санъатинг мунаққаш деворларингда,
Лекин ободлигинг бўлди Ҳапалак.
Паришаринг тутқун бўлиб ҳарамга,
Улуғ шоирларинг девона бўлиб,
Тақдир саҳросида зору сонсоним —
Ўзбекистоним...

Кўп эллари кездим, кўп юртлар кўрдим,
Бир-биридан гўзал, бир-биридан саз.
Лекин Шарқда машғал чароғон юртим,
Оламда тенги йўқ, ўлкадур мумтоз.
Бунда дўстлик куйин айтур ҳар чечак,
Бунда бахтни қилур ҳар булбул наво.
Диллардаги азал башарий тилак —
Буюк биродарлик гулшани аро
Осиёхон деган сулув санамга
Олтин сену атлас сўзона бўлиб,
Кулиб турган, ёруғ, мунис маконим —
Ўзбекистоним.

ОНА ТИЛИМ ЎЛМАЙДИ

Нотиқ деди:
“Тақдир шу,
Бу жаҳоний ирода.
Тиллар йўқолур буткул,
Бир тил қолур дунёда”.

“Эй воиз, настга тушгин,
Бу гап чиқди қаердан!”
Навоий билан Пушкин
Туриб келди қабран.

Ким дарғазаб,
Ким ҳайрон,
Чиқиб келдилар қатор:
Данте, Шиллер ва Байрон,
Фирдавсий, Балъазк, Тагор.

“Ваъзингни кўй, биродар,
Сен айтганинг бўлмайди”.
Барча деди баробар:
“Она тилим ўлмайди”.
— Ҳей, бу қандай ақид! —
Қўлида табаррук жом,
Гўзал форсий ҳақида
Рубоий айтди Хайём.

Эҳтиросли, отаидил
Беранже сўрди олон:
— Наҳотки, фаранги тил
Йўқолгуси бир замон!

Неруда, Лорка турди
Сервантеснинг ёнига:
— Ким қасд этиб тил урди
Она тилим жонига!

Фузулий ёнди:
— Озар



Тили гулдек сўлмайди.
Барча деди баробар:
“Она тилим ўлмайди”.

Камалакдек ранг-ранг
Бўлсин деб санъат, тиллар,
Асрларча қилдик жанг,
Армон қилдик минг йиллар.

Беқадр бўлса, наҳот,
Тиллардаги тароват!
Йўқолди бу кун, ҳайҳот,
Қабрларда ҳаловат!
“Фауст” ёнди гуриллаб,
“Хамса” ўтга туташди.
Бир садо жаҳон бўйлаб
Таралди, тоғлар ошди.

Бу садо янграр ҳамон,
Сира адо бўлмайди.
Олам айтар:
Ҳеч қачон
Она тилим ўлмайди!

ЙЎҚОЛГАН ШЕЪР

Бир шеър фикри ярқ этди ногоҳ,
Вужудимда галаён туйдим.
Ярқ этди-ю, мен бўлмай огоҳ,
Бир лаҳзада йўқотдим-қўйдим.

Неки бўлса менга энг азиз,
Энг мўтабар бўлса дунёда,
Борлигини банд этса не ҳис —
Бари энди унда ифода.

Вазмин эди ўз асрига хос,
Юксак эди бамисли хаёл.
У юракнинг ўзидек ҳасос,
Табиатдек эди баркамо.

Шеър дардида ўтган неча минг
Аждодларим руҳига қасам:
Уша шеърда бутун оламнинг
Шавқу дарди эди мужассам.

Бир хуш айём, бахтли масодиф,
Тулдирди-ю зар ила кўйиним,
Мен гўмроҳ-чи, бўлмайин воқиф,
Бир лаҳзада йўқотдим-қўйдим.

Шундан буён излайман уни,
Куюн каби кезарман жаҳон.
Қани, унинг бирор сатрини
Топиб олсам эдим шарон.

У шеър тамом банд этди мени,
Асир бўлдим унга умрбод.
Бамисоли ёр тасвирини
Ойинада кўргандек Фарҳод.

Мақон тутсам энди қаерда,
Қаён бошлар эса иқболим.
Фикру зикрим ўша шеърда,
Уша шеърда бутун хаёлим.

Водийларни сайр айлаган чоғ,
Асир этса ўлкам жамоли.
Кўз олдимда тикланур ногоҳ,
Уша шеърнинг етук камоли.

Қалби тоза, юрак-бағри кенг
Одамларга ҳамсуҳбат бўлсам.
Ёда тушар ўша шеърнинг
Вазминлиги, ҳасослиги ҳам.

Гоҳи юксак хирмонлар меним
Хаёлимни этганида банд,
Ўйлайманки, йўқотган шеърим,
Мана шундай эди сарбаланд.

Мен у шеърни излай умрбод,
Тоғ-тошларни кезай пиёда.
Топиб олсам, мендай бахтли зот
Бўлмас эди ёруғ дунёда.

Мен топмасам, майли, топса ким,
У газал, хоҳ касида бўлсин, —
Майли, менинг бор-йўқ ёзаним
Ўша шеърга бахшида бўлсин.

Майли эди, бир бора кўрсам,
Бир бор кўриб фидо қилсам жон.
Бу дунёдан шунда Эркин ҳам
Утар эди зарра беармон.

Китоб ўқиган, ўзини устида ишлаган одамда қанот бўлади. У бефарқ бўлмайди. Унинг кучи билимида бўлади. Шунинг учун ҳеч кимни писанд қилмайди. ”Катталар”га хушомад қилмайди. Унинг билими бор, илми бор. Мана нима учун китоб ўқинглар деймиз. Китоб ўқисангиз савол беришни биласиз.

O'zbekiston madaniyati va san'atida yangi davr:

ijodkorlik endi qismat emas, faxrga aylanadi!

Madaniyat har qanday millatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan muhim omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, san'at va adabiyot xalqning tarixi, tafakkuri hamda kelajak avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Shu bois Yangi O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat sohasini takomillashtirish, ijod ahlini qo'llab-quvvatlash, milliy madaniy merosni asrash va xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmogda.

Madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlari milliy madaniy merosni asrab-avaylash, aholi, ayniqsa yoshlarning madaniy saviyasini oshirish, ijodkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, milliy san'atni jahon maydonida keng targ'ib qilish, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishdan iboratdir.

Bu vazifalar mamlakat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlik va milliy birlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda respublika bo'yab teatr, muzeylar, madaniyat markazlari hamda bolalar musiqa va san'at maktablarini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi. Zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, muassasalarning texnik imkoniyatlari kengaytirildi. Bu esa aholiga ko'rsatilayotgan madaniy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda madaniyat markazlari faoliyatini jonlantirish

bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda. Bu orqali aholining madaniy hayotidagi ishtirokini kengaytirish maqsad qilingan. Bu olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2026 yil 1-iyun kuni madaniyat va san'at sohasining yetakchi vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi unutilmas voqea bo'ldi. Davlatimiz rahbari mazkur muloqotning maqsadi sohadagi muammolarga yechim topish hamda adabiyot, madaniyat, san'at va kreativ iqtisodiyotda yangi muhit yaratadigan katta tashabbuslarni boshlab berishdan iborat ekanini ta'kidladi. Unda Prezidentimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bir qator takliflar ilgari surildi. Ular bevosita milliy madaniyatimizni rivojlantirish bilan bir qatorda, soha vakillari, ijodkorlarning inson sifatida qadr qimmatini oshirish, ijtimoiy himoyalash hamda qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligi bilan

muhim ahamiyatli kasb etdi. Jumladan, Endilikda har yili 1 ming nafar shoir va yozuvchilar, madaniyat va san'at vakillari, muzey xodimi va rassomlarga uy-joy olish uchun ipoteka krediti dastlabki to'lovining 50 foizi qoplab beriladi. Ijodiy tashkilotlar, madaniyat va san'at muassasalariga boshqa hududdan kelib ishlayotgan soha vakillari ham ko'p. Bugundan boshlab ularga uy-joy ijarasi uchun Toshkent shahrida oyiga 2,5 million so'mgacha, viloyatlarda 1 million 600 ming so'mgacha xarajatini qoplab berish yo'lga qo'yiladi. Har yili faoliyatida yaxshi natijaga erishgan 1 ming nafar soha xodimi davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi hisobidan bepul davolanadi. Yana 2 ming nafar ijodkorga davlat tomonidan tibbiy sug'urta paketi taqdim etiladi. Kamida 10 yil ishlagan xodimlarga sanatoriyalariga bepul yo'llanma beriladi. Joriy yil 15-iyundan xalq artisti, xalq shoiri, xalq yozuvchisi kabi yuksak faxriy unvonga ega ijodkorlarning aeroport va vokzallardagi VIP zallardan bepul foydalanishi ta'minlanadi. Shula va raqs ansambllarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 1-sentabrdan boshlab ulardagi barcha xodimlarning ish haqi 2 karra oshiriladi. Raqs ustalariga pensiya uchun talab etiladigan raqs staji 20 yildan 15 yilga qisqartirilib, qolgan 5 yilini baletmeyster, repitov va pedagog sifatida davom ettirishiga ruxsat beriladi.

Prezidentimiz Yangi Toshkentda qurilishi boshlangan Maqom markazi yonida zamonaviy va muhtasham Raqs saroyini barpo etishni taklif qildi. Mutasaddilarga raqs san'atini rivojlantirish bo'yicha katta dastur ishlab chiqish topshirildi. Kompozitor va bastakorlar faoliyatini moliyalashtirish,

ularni moddiy rag'batlantirish tizimi ham to'liq qayta ko'rib chiqilishi qayd etildi. Har yili ularga opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo'yicha kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun davlat buyurtmasi berib boriladi. Aeroport, vokzal, metro, park, yirik savdo-servis obyektlari, kafe va restoranlarda milliy kuy va qo'shiqlarimiz doim yangrab turishi kerakligi ta'kidlandi.

Muloqot jarayonida sohada iste'dodlarni yuzaga chiqarish va qo'llab-quvvatlash maqsadida yangi tizim joriy qilinishi qayd etildi. Jumladan, teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at kabi 21 ta yo'nalish bo'yicha ijodiy birlashmalar tashkil etilishi ta'kidlandi. Bu ijodiy birlashmalar san'at turlari bo'yicha yetakchi mutaxassislarni birlashtirib, o'z maktabini yaratgan san'atkorlarimiz yoshlarga kasb sirlari va sahna madaniyatini o'rgatadilar. Vazirlar va kompaniya rahbarlari esa eng quyi pog'onaga tushib, tumanlardagi musiqa maktablari va badiiy jamoalar bilan uchrashib, ularning muammolariga yechim topadi. Yoshlarning ijodiga yangi nafas olib kirish uchun har bir ijodiy birlashma kesimida mahalla — tuman — viloyat — respublika tanlovlarini tashkil qiladi. G'olib va sovrindorlarni qo'llab-quvvatlash uchun ularni gastro safari, festival va xalqaro tanlovlarida ishtirok etishiga ko'maklashishi belgilandi. Har yili "Milliy ijodkorlar qurultoyi" o'tkaziladi. Bu 21 ta ijodiy birlashmaning o'ziga xos yillik hisoboti bo'ladi. Qurultoyda birlashmalarining yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlarining badiiy kechasi tashkil qilinadi va ular munosib taqdirlanadilar.

Universitetning An'anaviy xonandalik va cholg'u ijrochiligi kafedrasidada O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti, maqom qo'shiqlarining mohir ijrochisi Matluba Dadaboyevaning ilmiy maktabi tashkil etish maqsadi 2026-2027 o'quv yilidan boshlab faoliyat yuritishga kelishildi.

2026-2027 o'quv yilidan ta'lim dasturlariga "Artemenajment", "Kreativ industriya", "Loyihalarni tijoratlashtirish" singari zamonaviy mavzular kiritilishi, kinoindustriya, moda va dizayn, madaniyat menejmenti kabi yo'nalishlarda xorijdan 50 nafar tajribali mutaxassis-o'qituvchi olib kelinishi, talabalarining startap loyihalari uchun 10 ta oliygohga 50 milliard so'm berilishi belgilandi.

Shuningdek, hozir madaniyat va san'at sohasi xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha yaxlit tizim yo'qligi bois, O'zbekiston davlat konservatoriya huzuridagi madaniyat institutidagi markaz negizida Madaniyat vazirligida soha xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil qilinishi aytib o'tildi. Bu o'z navbatida san'at ta'limini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Darhaqiqat, madaniyatga e'tibor — millat kelajagiga e'tibordir. Inson o'zi qadr topgan yurtga fidoiylilik qilishi tayyor bo'ladi. Millat dardi bilan yashayotgan madaniyat va san'at sohasi vakillari uchun ijod endi qismat emas, balki faxr, millat faxri bo'lish baxti bo'lib qoladi.

Baxromjon INATULLAYEV,
Namangan davlat universiteti kafedra mudiri, "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni sohibi



KONFERENSIYA BO'LIB O'TDI

Shahrisabz davlat pedagogika institutida "Adabiyot o'qitishning nazariy muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya doirasida sho'ba majlisleri o'tkazildi.



Konferensiya dasturi doirasida tashkil etilgan sho'ba majlislarida adabiyot ta'limining dolzarb masalalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari hamda adabiyot fanini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslariga oid mavzular atroficha muhokama qilindi.

Ilmiy bahs-munozaralar jarayonida adabiyot ta'limini yanada takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish hamda o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Anjuman yakunida faol ishtirok etgan ma'ruzachilar, olimlar va tashkilotchilar taqdirlanib, ularga sertifikat hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Axborot xizmati

ЮРТ БИЛАН ЮКСАЛИШ САРИ

Бугунги кунда мамлакатимизда инсон қадрини улуғлаш, айниқса, меҳнат фахрийлари, устозлар ва ёшларга эътибор қаратиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Шу маънода, Мирзо Улуғбек тумани касаба уюшмаси ташаббуси билан ташкил этилган маънавий-маърифий саёҳат алоҳида аҳамият касб этди.

Устоз — жамиятнинг таянчи, маънавиятнинг тарбиячиси. Йиллар давомида билим ва тарбия берган, минглаб

шогирдларни камолга етказган фахрий педагоглар бугун юртимизнинг энг катта бойликларидан биридир. Шу bois

уларга қаратилаётган эътибор — бу келажакка бўлган эҳтиромдир.

Сўнги йилларда мамлакатимизда фахрий устозларга ғам-хўрлик қилиш, уларнинг ҳолдан хабар олиш, турли маънавий-маърифий тадбирларга жалб этиш ишлари кенг йўлга қўйилган. Айниқса, турли байрамлар муносабати билан уларга кўрсатилаётган ҳурмат ва эътибор қалбларга илқиклир бахш этади. Бундай эътибор устозларнинг меҳнати унутилмаслиги, улар доимо эъзодда эканини намоён этади. Ёш авлод учун эса бу — катта ибрат мактаби ҳисобланади.

Ушбу ташаббус доирасида нафақадаги педагог устозлар учун ташкиллаштирилган Тошкент шаҳри бўйлаб саёҳат қизиқарли ва мазмунли тус олди. Саёҳат давомида устозлар "Ғалаба" боғига ташриф буюриб, у ерда яратилган шарт-шароитлар, тинчлик ва хотириани улуғлашга қаратилган муҳит билан яқиндан танишдилар. Шунингдек, улар "Шон-шараф" музейида бўлиб, халқимизнинг тарихий жасорати, Иккинчи жаҳон уруши йилларидаги матонати ҳақидаги экспонатлар билан танишдилар. Бу ташриф устозларда чуқур



таассурот қолдирди. Саёҳат давомида яна бир муҳим манзил — Ислон цивилизацияси марказига ташриф амалга оширилди. Бу ерда юртимизнинг бой маънавий мероси, буюк алломаларимиз ҳаёти ва илмий фаолияти ҳақидаги маълумотлар устозларда катта қизиқиш уйғотди.

Мазкур саёҳат нафақат дам олиш, балки маънавий юксалиш, ўтмишни ёдга олиш ва бугунги тараққиётни ҳис этиш имконини берди. Бундай ташаббуслар қадриятларни қадрлаш, хотин-қизлар, ёшларни юрт тараққиёти билан янада ҳамнафас бўлишга ундайди.

Замира Тўраева,
Мирзо Улуғбек туманидаги 279-мактаб касаба уюшмаси раиси

Bugungi O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy, madaniy-ma'rifiy gazeta

MUASSIS VA XAMKORLARIMIZ:
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, vazirlik xuzuridagi kasbiy ta'lim Agentligi, O'zbekiston sud'yalari Assotsiatsiyasi, "BUGUNGI DAVR" MCHJ

TAХИРИЙ ХАЙЪАТИ:
Убайдулла МИНГБОВ (тахрир хайъати раиси), Кўнғиротбой ШАРИПОВ, Абдусайд КўЧИМОВ, Улуғбек ҚОСИМОВ, Азимжон ХУСАНОВ, Соатмурод ЖУМАЕВ
Хикматуллох ҚОДИРОВ, Садриддин ТУРАБДЖАНОВ, Валишер КАРАМАНОВ, Тоштемир ТУРДИЕВ

Бош муҳаррир: Соатмўмин ЖУМАЕВ

Газета Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Аxbорот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2021 йил 20 декабрда №1491 рақами билан рўйхатга олинган.

t.me/bugungi_uzbekiston_gazetasi

НАШР ИНДЕКСИ — 298

Газета тахририят компьютер марказида терилди ва саҳифаланди.

Газетадан кўчириб босилганда "Bugungi O'ZBEKISTON"дан олингани кўрсатилиши шарт.

Газетада эълон қилинган материаллардаги фактлар учун муаллиф жавоб беради.

Қоғоз бичими А-2. Ҳажми 4 босма табоқ, Баҳоסי келишилган нарҳда.

Нашр учун масъул: Хикматуллох ҚОДИРОВ

Тахририят манзили: 100011, Тошкент шаҳри, Навоий кўчаси, 30-уй,

Телефонлар: (71)-244-33-82, +99890-927-99-91, +99888-702-15-71

Газета "ШАРҚ" НМАК босмаҳонасида chop этилди. Босмаҳона манзили: Тошкент шаҳри, Буюк Турон кўчаси, 41.

Босмаҳонага топшириш вақти — 20.00

Топширилди — 22.00. Адади — 2500. Буюртма - Г-606